

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“MOLIYAVIY MENEJMENT” FAKULTETI

“MENEJMENT VA MARKETING ” KAFEDRASI

JUMABAYEVA MANZURA YANGIBAYEVNA

**“HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH VA
AHOLI BANDLIGI MENEJMENTI”**

«Moliyaviy menejment» fakulteti
dekani iqtisod fanlari nomzodi,
dotsent Astanakulov Olim Tashtemirovich

« ____ » _____ 2016

“HIMOYAGA RUHSAT ETILDI”
“Menejment va marketing” kafedrasi mudiri
i.f.n., dotsent Asatullayev Xurshid
Sunnatullayevich

« ____ » _____ 2016 yil

Bitiruvchi :

**5230200-“Menejment”-ta’lim
yo‘nalishi 4-kurs talabasi**

**Jumabayeva Manzura
Yangibayevna**

Ilmiy rahbar

i.f.n.,dots.Xamdanova Gavxar Absamatovna

T

TOSHKENT -2016

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI TASHKIL ETISH VA UNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	6
1.1. Kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalari, ularning mohiyati va mazmuni.....	6
1.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni boshqarishning jamiyat ijtimoiy strukturasi tutgan o‘rni	15
1.3. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkillashtirishning iqtisodiy - huquqiy asoslari.....	21
Birinchi bob bo'yicha xulosa	25
II BOB. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK MENEJMENTI VA UNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	26
2.1. O‘zbekiston Respublikasi hududlarida kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatish tizimi tahlili va aholi bandligi menejmenti.....	26
2.2. “MUROD MATQURBANOV” XK faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy tavsifi.....	31
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	38
III BOB. IQTISODIYOTNING BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI	39
3.1. Iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining innovatsion istiqbollari.....	39
3.2. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash yordamida takomillashtirish yo‘llari.....	49
3.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda jahon tajribasi o‘rganish va ulardan amaliyotda foydalanish imkoniyatlari.....	56
Uchinchi bob bo'yicha xulosa	63
XULOSA	64
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	67

KIRISH

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. Jahon amaliyoti rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda, yangi ish o‘rinlarini barpo qilishda, bozor o‘zgarishlariga nisbatan tez moslashishda va mulkdorlar sinfini shakllantirishda alohida ahamiyatga va yuqori samaradorlikka ega ekanliklarini tasdiqladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, sotsial va iqtisodiy barqarorlikdan manfaatdor, uni taraqqiyot va demokratik tub o‘zgarishlar sari faol harakatlantiradigan kuch hisoblangan ijtimoiy qatlam shakllanmoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirish, ishbilarmonlikni huquqiy himoya qilish masalasi mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ushbu soha jadal sur‘atlar bilan ravnaq topib, aholi bandligi va turmush farovonligini ta‘minlashda yetakchi kuchga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov “O‘zbekiston keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o‘nta davlat qatoridan joy olgani qayd etilgan. Ana shu yo‘nalishdagi islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000-yildagi 31 foizdan bugungi kunda 56,7 foizga yetgani yoki 1,8 barobar oshganini alohida ta‘kidlashni istardim. Hozirgi paytda ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 98 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band jami aholimizning 77 foizdan ortig‘i - shunga e‘tibor bering - mazkur tarmoqda mehnat qilayotgani, o‘z peshona teri bilan nafaqat o‘z oilasini boqayotgani, balki mamlakatimiz boyligiga boylik qo‘shayotgani, avvalo, mustaqillik bizga ochib bergan imkoniyatlarning yaqqol isboti”.¹ deb ta‘kidlaydi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi. 2016 yil. 17-yanvar.

Ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi. O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining o‘tib borishi ichki bozorni sifatli va raqobatdosh tovarlar bilan to‘ldirish, zamonaviy talablarini hisobga olgan holda, jahon bozori talablariga mos, eksportbop mahsulotlarni ko‘paytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, avvalo, yoshlarni ish bilan ta‘minlashning, shu asosda aholi daromadlari va turmush farovonligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanishi bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Bitiruv malakaviy ishining obyeksi va predmeti. Mamlakatimizda kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatish tizimi tadqiqot obyeksi hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va undagi tashkiliy - iqtisodiy munosabatlar tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi va ushbu sohaning aholi bandligini ta‘minlashdagi ulushining o‘tib borishiga qaratilgan ilmiy-uslubiy va amaliy holatlarni o‘rganishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi. BMI maqsadiga muvofiq tadqiqotning vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

-kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalari, ularning mohiyati va mazmunini o‘rganib chiqish;

-kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni boshqarishning jamiyat ijtimoiy strukturasi tutgan o‘rnini yoritib berish;

-O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkillashtirishning iqtisodiy - huquqiy asoslariga tavsif berish;

-O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining amaldagi holati va aholi bandligi menejmentini tahlil qilish;

-iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining innovatsion istiqbollarini o'rganib chiqish;

-O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash yordamida takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish;

-kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda jahon tajribasini o'rganish va ulardan amaliyotda foydalanish imkoniyatlari belgilab berish.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy - amaliy ahamiyati. BMI natijalari, xulosa va takliflar O'zbekiston Respublikasi hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligi menejmentini masalalariga bag'ishlangan nazariy va amaliy bilimlar doirasi o'rganiladi. BMI ning amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligi menejmentini tizimini takomillashtirish bo'yicha chora - tadbirlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

BMI tarkibining qisqacha tavsifi. Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. BMI matni 71 betni tashkil etib, unda 11 ta jadval, 10 ta rasm, 8 ta diagramma keltirilgan.

I BOB. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI TASHKIL ETISH VA UNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalari, ularning mohiyati va mazmuni

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti asosida rivojlanayotgan bir qator mamlakatlarda yirik korxonalarining ichki bo‘linmalari bajargan avvalgi ko‘p funksiyalardan voz kechish va bu funksiyalarni kichik korxonalariga berish jarayoni kuzatilmoqda. Aynan shu sabablarga ko‘ra, yirik sanoat korxonalarini soni qisqarib, kichik korxonalar soni o‘shib bormoqda. Bu jarayon bozor iqtisodiyotining dinamik, harakatchan, yangiliklarga hozirjavob tarzda o‘shishi, bozordagi talab va uning o‘zgarishiga tez moslashuvchan bo‘lishini ta’minlaydi.

Shunga muvofiq, O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar korxonalarini bilan raqobatdoshlik darajasi ortishiga imkon beradigan eng muhim omillardan biri kichik korxonalarining butun bir tarmog‘ini vujudga keltirishga imkon beradigan qulay shart-sharoitlarni yaratishdan iborat bo‘lib, bunday korxonalar yig‘indisi raqobatli bozor muhitini yaratishga imkon beradi. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy - iqtisodiy islohotlarning tub negizini tadbirkorlik, omilkorlik va ishbilarmonlik xislatlarisiz tasavvur etish qiyin. Erkin bozor munosabatlarining keng ravnaq topishi kishilar hayotida, ularning turmush tarzida, ma’naviy va hayotiy ko‘nikmalarida namoyon bo‘lmoqda.

Hozirgi vaqtda respublikamiz fuqarolari rivojlangan Yevropa davlatlari, AQSh, Yaponiya kabi davlatlarning boy amaliy tajribasi xususida yetarli axborotga ega bo‘lib bormoqdalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo‘lgan mulkdorlar sinfini, ya’ni o‘rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydi.²

² Prezident Islom Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2011y 22-yanvar. № 16 (5183).

Respublikada iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning jarayonlarini tobora avj oldirish, shuningdek tadbirkorlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlash maqsadida: O‘zbekiston Respublikasining Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish Qo‘mitasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi davlat mulki jamg‘armasi negizida O‘zbekiston Respublikasi davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat Qo‘mitasi tashkil etilgan.

O‘zbekistonda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlanishi raqobatchilikni rivojlanishiga iste‘mol bozorini tovarlar va xizmat ishlari bilan to‘ldirishga yangi ish joylarini yaratish, katta miqdordagi mulk egalari va tadbirkorlarni shakllanishiga xizmat qiluvchi Respublikada o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlanishi nafaqat iqtisodiyotni muttasil rivojlanishi, xo‘jalik aloqalarini tuzatish, raqobatni rivojlantirish va iste‘mol bozorini to‘ldirish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy maqsadlarni ta‘minlashi zarur. Bulardan tashqari, bunday davlat yordami iqtisodiy siyosiy vazifalarni hal etishi respublikaning barcha hududlarida siyosiy mo‘tadillikni mustahkamlashi, tadbirkorlik faoliyatiga tegishli bo‘lgan ijobiy, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishi, unga aholining aktiv qismini jalb etishi ishsizlikni, inflyatsiya va boshqa negativ salbiy ijtimoiy holatlarni oldini olishi lozim.

Hozirgi kunda “biznes”, “kichik biznes” va “tadbirkorlik” kabi tushunchalar keng tarqalib bormoqda. Avvalambor “biznes” tushunchasi haqida to‘xtalib o‘tsak. Biznes - biror faoliyat yuzasidan bo‘lgan munosabat, aniqrog‘i ishbilarmonlarning iqtisodiy munosabatlaridir.

Biznesning uch turi ajratiladi:

1. Savdo - vositachilik;
2. Ishab chiqarish biznesi;
3. Xizmat ko‘rsatish asosidagi biznes.

Ishlab chiqarish biznesida ularning ikki tipi ajratiladi:

1. Ana'naviy tipdagi tadbirkor. Bunday tadbirkor har doim talab qilinadigan mahsulotni ishlab chiqaradi.

2. Novator - tadbirkor. U yangi texnologiyalardan foydalanish asosida ixtirolarni ishlab chiqarishga qo'llaydi va avval ma'lum bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishni yangi usullar yordamida amalga oshiradi. Bunda yangi ishlab chiqarishlar, tarmoqlar yaratilishi mumkin.

Biznes - munosabat sifatida bir qator belgilarga ega: bizneschilar o'z manfaatlariga ega, foyda olishga intiladilar, hatto xatarli ishga qo'l urishga ham tayyor, tashabbuskor, ishning siru-asrorlarini biladigan, o'zaro iqtisodiy aloqalar madaniyatini egallagan bo'ladilar. Ularning aloqalari hamma ishtirokchilar uchun naf keltiradi. Biznesmen - kapital egasi, mulkdor, mulkini kupaytirishga intiluvchi shaxs.

Biznes - bu ruxsat etilgan, jamiyat a'zolariga naf keltiruvchi faoliyat bilan shug'ullanib, pul daromad topishni bildiradi.³ Biznes keng ma'nodagi qonuniy yo'l bilan daromad topishga qaratilgan faoliyatdir. Biznesning mohiyati ayriboshlashdadir. Pulni tovarga va yanada ko'proq pulni, ya'ni foydasi bilan qaytgan pulni tovarga ayirboshlash biznesning mohiyatini ko'rsatadi:

$$P \rightarrow T \leftarrow P \rightarrow T$$

Biznes ishbilarmonlik munosabati sifatida o'z subyektlariga ega, ya'ni yakka tartibda biznes bilan shug'ullanuvchi kishilar, tadbirkorlar jamoasi va uyushmasi, yakka iste'molchilar birlashmalari va nihoyat, davlatning iqtisodiy idoralariga ega.

Tadbirkorlik to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunining "Tadbirkorlik subyektlari" deb atalgan 4-moddasida biznesning subyektlari deb quyidagilar ko'rsatilgan:

-xususiy tadbirkorlar;

-tadbirkorlar jamoasi va tadbirkorlik assotsiatsiyasi;

-mahsulotni iste'mol qiluvchi yoki ulardan foydalanuvchi alohida va ko'pchilik shaklidagi iste'molchilar va shuningdek iste'molchilar uyushmasi va assotsiatsiyalari;

³ Jalolov J.J. va boshqalar. Biznes marketingi. Darslik. T.: Iqtisodiyot, -2011 y.- 34b.

-kontrakt asosida yollanib mehnat faoliyatini amalga oshiradigan xodimlar va kasaba uyushmalari;

-bitim tuzishda to'g'ridan - to'g'ri ishtirok etuvchi davlat, tuzilmalari (tadbirkorlarga hukumat buyurtmalarini berishda, baho belgilashda, maxsus ishlar va boshqalarni bajarishda imtiyozlar hajmini, tartibini aniqlashda).⁴Tadbirkorlik obyekti bo'lib ishlab chiqarish omillarini samarador kombinatsiyasini oqilona ishlab chiqish va natijada maksimal darajada daromad olish hisoblanadi.

Biznesga bozor orqali talab - ehtiyojni qondiruvchi faoliyat ham kiradi. Iste'molchilarning biznesda ishtirok etishdan manfaati tovar va xizmatlarni sotib olishlaridir. Tadbirkorlik biznesidan farqliroq iste'molchi biznesida hamma fuqarolar qatnashadi, ularning talab-ehtiyojlarini bozor orqali qondirish zarurati faol tadbirkorlikni talab qiladi. Tadbirkorlik biznesning bir qismi, u tovarlar ishlab chiqarish va xizmat turlarini ko'rsatish yo'li bilan daromad topishdir. Biznesga tadbirkorlikdan tashqari boshqa yo'l bilan, masalan, pul yoki qimmatbaho buyumlarni bankka qo'yib, daromad topish yoki ijaraga berib pul topish kabilar kiradi, lekin bu faoliyat sohalarida yaratuvchilik yo'q, ya'ni hech bir narsani yaratmay, u boylikdan boylik undirishdan iborat xolos.

Biznes munosabatining ikkita asosiy talabi bor.

Birinchi, biznes ishtirokchilari suverenitetga, mustaqillik, erkinlikka ega bo'lishlari shart. Ammo bu biznes subyektlarining mustaqilligi bilan cheklanmaydi, balki har bir subyektning boshqa subyekt, ya'ni o'zi aloqa qiladigan subyekt manfaatlari bilan hisoblashish, uning niyatlarini va xatti - harakatlarini bilish va to'g'ri tushunishni ham talab qiladi.

Ikkinchi, biznes aloqlaridagi subyektlar manfaatlarining murosali munosabatda bo'lishi talab qilinadi.


Murosa ish yuzasidan bir - biri bilan aloqa qiluvchilar o'zaro majburiyatlarini kanda qilmay bajarishlarini, xatti - harakatlari har ikki tomonga zarar keltirmasligini, ularning

⁴ Tadbirkorlik to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 4-modda.

suvereniteti buzilmasligini taqozo etadi. Garchi nazariy jihatdan biznes va tadbirkorlik tushunchalari o'rtasida farq bo'lsada, biroq kundalik hayotda biznes bilan shug'ullanuvchi barcha kishilarni tadbirkor deb hisoblanadi. Bu tushunchalar sinonim sifatida ishlatiladi. Ayrim hollarda ular o'rtasida farq ajratilmaydi, ba'zi holatlarda xam ikkala so'z ham ishlatiladi.

Demak, biznes - pul topish yo'lidagi harakat, boylikni, mulkni oshirishga intilish bo'lsa, tadbirkorlik - bu ixtiro etish, ishlab chiqarish omillaridan oqilona foydalanish yordamida unga o'xshash bo'lmagan yangilikni yaratish va amalga oshirish yoki eskisini yo'qotib, takomillashtirib ishlab chiqarishni qayta qurish, ya'ni novatorlik.⁵

Biznes sohasida hech kim o'zini yirik mutaxassis deb aytmaydi. Biznesda mutloq tamoyillar, keskin tushunchalarni ajratish qiyin. Biznesning maqsadi, odatda foyda olish va uni barqaror holga keltirish, foydani muttasil oshirib borish va boyib ketish, foyda hisobiga kapitalni ko'paytirishdir. Tadbirkorning maqsadi esa yangi fikr va g'oyalarni izlash, tahlil qilish, o'zining tashabbuskorlik, yaratuvchilik qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, o'z ishni rivojlanishida muvaffaqiyatga erishishdir.



1-rasm. Biznesning maqsadi.⁶

⁵ Abdullaev.Yo. "Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari". 100 savolga - 100 javob - T.: Mehnat, 2008. - 40b.

⁶ S.S.G'ulomov "Tadbirkorlik va kichik biznes" - T.: Sharq, 2002 y. - 35b.

Biznesning eng asosiy jihati - bu tadbirkorlikdir. “Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida, “Tadbirkorlik qonun hujjatlariga muvofiq daromad olishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) yo‘li bilan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyatdir” deb ko‘rsatilgan. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy erkinliklar berish bilan tavsiflanadi. Kichik tadbirkorlikning quyidagi xususiyatlari mavjud :


- bozordagi talabga tez moslasha borib,sifatli mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati;
- nisbatan qisqa muddatlarda aholi ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabni qondira olishi;
- dastlabki sarmoya hajmining nisbatan kichikroq hajmda ekanligi;
- tez orada yangi ishchi o‘rinlarni barpo etish hamda bandlik muammosini hal etishga ko‘maklashish imkoniyati;
- biznes egasining vazifalarini amalga oshirishda bevosita ishtiroki.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-oktyabr oyidagi “Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 439-sonli qarorida ta’kidlashicha:

-mikrofirmalar deb, mulk shaklidan qat’iy nazar ishlab chiqarish sohasida yiliga o‘rta hisobda 20 nafargacha, xizmat ko‘rsatish sohasida 10 nafargacha, savdo sohasida 5 nafargacha;

-kichik korxonalar deb mulk shaklidan qat’iy nazar ishlab chiqarish sohasida yiliga o‘rta hisobda faoliyat yo‘nalishiga ko‘ra 50-100 kishigacha, savdo, xizmat ko‘rsatish sohasida 20-25 nafargacha ish bilan band xodimlarga ega bo‘lgan yuridik shaxslar tushuniladi.⁷

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 11-oktyabridagi “Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 439-sonli qarori. “Xalq so‘zi”, 2003 yil 12-oktyabr.



2-rasm. Tadbirkorlik faoliyati turlarining tarkibi.⁸

Tadbirkorlik faoliyati turlari xilma-xildir. Faoliyat maqsadi, turi va yo‘nalishlariga qarab tadbirkorlik faoliyatining ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va konsalting turlarini ajratish mumkin.

Qayd etilgan ushbu tadbirkorlik faoliyatining har bir turi kichik turlariga bo‘linadi. Mavjud tadbirkorlik faoliyati turlarini quyidagicha ifoda etish mumkin. Tadbirkorlikning rivojlanishiga imkon yaratib beruvchi asosiy sharoitlardan biri bu - raqobat muhitini yaratish va xo‘jalik yuritish subyektlariga iqtisodiy erkinlik berishdir.

⁸ Kichik biznes va tadbirkorlik: O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. - T.: ADIB NASHRIYOTI, 2011.- 280 b.

Muammoning mohiyatini bunday tushunishning o'zi hozirgi zamon jahon iqtisodiyoti rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri-kichik biznesning tobora o'sib borayotgan ahamiyatini yanada yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Iqtisodiyotning aynan shu tarmog'i qobiliyatli va ishbilarmon odamlarni tanlab olishning samarali tizimini ifoda etadi, zaruriy raqobat muhitini yuzaga keltiradi, yirik xo'jalik tuzilmalari tomonidan yechilishi qiyin bo'lgan bir qator muammolarni tez orada yechishga imkon yaratadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini mamlakatimizda rivojlanishining tashkiliy-uslubiy tizimi quyidagichadir. Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlar va infratuzilma yaratilgan bo'lib, ular bu sohaning zamon talablari darajasida rivojlanishi uchun ko'plab imkoniyatlar va imtiyozlar tizimini yaratmoqda.

Tadbirkorlikni rag'batlantirish va qo'llab quvvatlash bo'yicha ko'rilgan mazkur choralar uning rivojlanish jarayonida, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushining ortishida va iqtisodiyotning mazkur sektoridagi bandlik darajasida o'z aksini topdi.

Shuni ta'kidlash muhimki, mehnatga qobiliyatli yoshga kirayotgan yigit va qizlarning ko'pchiligi mehnatga qobiliyatli aholini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni emas, balki uning tabiiy yo'q bo'lishi o'rmini qoplaydi, ya'ni avlodlarning jadal almashuvi sodir bo'ladi, u mehnat resurslarining sifat tarkibi keskin o'zgarishiga sabab bo'ladi. Ayni vaqtda kelgusida xodimlarning ommaviy ravishda bo'shatilishi natijasida ish bilan bandlik vaziyati mehnatga qobiliyatli aholining o'sishi sezilarli darajada ko'payishi tufayli murakkablashuvi mumkin.

Ish bilan bandlik xarakteri kishilarning mulkiy maqomiga bog'liq. O'tish davrida mehnat resurslarining ukladlararo erkin taqsimlanishi bo'lib tursada, turli ukladlardagi bandlik darajasi, bandlikning daromad keltirishi bir xil emas, albatta.

1.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni boshqarishning jamiyat ijtimoiy strukturasi va tutgan o'rnini

O'zbekiston Respublikasida aholini ish bilan bandligini ta'minlash jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi va u mamlakat iqtisodiyotida alohida ahamiyatga ega. O'zbekistonda aholini ish bilan bandligini ta'minlashni yanada yaxshilash va uning farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida ish bilan bandlikning noan'anaviy shakllari – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va servis, oilaviy tadbirkorlik va kasanachilik sohalari qo'llab-quvvatlash va bu sohalarni rivojlantirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishda bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari muhim o'rin tutadi.

Ish bilan bandlik ijtimoiy totuvlik va barqarorlikka erishuvning, jamiyat iqtisodiy rivojining muhim omilidir. Hozirgi davrda bandlik sohasidagi hukumatimizning inson omiliga qaratilgan strategiyasida mehnatga qodir har bir inson o'z qobiliyatlarini o'stirishi va o'z mehnat tarzini ta'minlashi uchun sharoitlar yaratishi nazarda tutiladi.¹⁰

Bu tabiiy ravishda ukladlardagi korxonalar salohiyatiga, ularning bozor bilan ta'minlanishiga, umumiy iqtisodiy vaziyatga bog'liq. Bir uklad uchun bandlik sharoiti qulay bo'lgani holda, boshqasi uchun noqulay bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti nuqtai-nazaridan, ishchi haqi darajasi ishchi kuchining muvozanatlashgan narxidan yuqori o'rnatilganda, taklifning talabga nisbatan ko'pligi paydo bo'ladi, talab oshgani sari ish haqi ham oshadi, talab kamaygan sari esa, ish haqi ham kamayadi.

Mehnat bozorining asosiy indikatorlaridan biri ishlovchilarning ishga joylashish ko'rsatkichidir. Shu nuqtai-nazardan olib qaraladigan bo'lsa, ishga joylashganlar sonining ham mutlaq, ham nisbiy ko'rsatkichlarning oshayotganligini mehnat bozoridagi ijobiy tendensiya sifatida baholash mumkin.

¹⁰Boltaboyeva L. Demografik muhitning ish bilan bandlik darajasiga tasiri. // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, -T.: 2009. 4-son -42 b.

Shuning uchun ham ishsizlik miqyosining haddan tashqari oshib ketishining oldini olish va ishsizlarni ishga joylashtirishga yordam berishning samarali tadbirlarini ishlab chiqish lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatga boʻlgan talabni ragʻbatlantirishning birdan-bir vositasi investitsiyalar samaradorligini taʼminlashdir. Mehnatga boʻlgan talabning navbatdagi omili oʻzaro bir-birini toʻldiradigan mehnat resurslari bilan bogʻliqdir. Agar bitta stanokni xodim boshqarsa va bu xildagi stanoklar narxi oshsa, u holda bu stanoklarda ishlaydigan ishchilarga talab boshqa teng sharoitlarda pasayadi va aksincha boʻladi.

Amaliyotda inflyatsiya koʻrsatkichlari bilan aholini ish bilan samarali bandligi oʻrtasida teskari mutanosiblik mavjud. Inflyatsiya sharoitida, daromad soligʻi yukining yashirin, norasmiy oshishi yuz beradi. Inflyatsiyasiz va daromad soligʻi chegaralarini qayta koʻrib chiqmasdan, kompensatsiya qilish maqsadida oylik ish haqini 10 foiz oshirish daromad soligʻidan tushadigan tushumlarni 16 foizga koʻtaradi, demak soliqlarning real oshishi 6 foizga teng. Bunday holat fiskal nuqtai-nazaridan olib qaralganda davlat uchun inflyatsiyaga nisbatan iltifotli boʻlishga ragʻbat tugʻdiradi. Lekin bu yerda quyidagilarni nazardan qochirmaslik kerak, yaʼni bu hodisaning teskari tomoni ham mavjud.

Yaʼni shchilar real daromadining mos ravishda qisqarishi, talab toʻlov qobiliyatining pasayishi, bu tovar aylanishining kamayishiga olib keladi va oxir - oqibatda ishlab chiqarish qisqaradi.¹¹ Bu esa, mehnat bozorida ish kuchiga boʻlgan talabni pasayishiga ragʻbat boʻluvchi inflyatsion moyillikni vujudga keltiradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda aholini ish bilan taʼminlash boʻyicha amalga oshirilayotgan tarkibiy oʻzgarishlar quyidagilardan iborat:

Aholining ish bilan bandligi tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish hamda ishsiz aholini yangi, mehnat bozorida raqobatdosh kasb-hunarlariga oʻrgatish.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ayniqsa tarkibiy oʻzgartirish va diversifikatsiya masalalariga eʼtiborni kuchaytirish.

¹¹ Yusupov M. Soliq siyosatini takomillashtirishning dolzarb muammolari // Bozor, pul va kredit.2008. 2-son, - 14b.

Yangi ish o‘rinlari yaratish bilan bir qatorda ichki va tashqi iste’molga mo‘ljallangan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishni ham ko‘zda tutadi. Ish bilan bandlikka ko‘maklashuvchi markazlar faoliyatini takomillashtirish, bunda eng avvalo ushbu markazlar tuzilmasini maqbullashtirish, global inqiroz sharoitida ustuvor chora-tadbirlarni belgilab olish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalaridan kelib chiqqan holda, aholini ish bilan ta‘minlash uchun ajratilayotgan moliyaviy mablag‘larni oqilona taqsimlash chora-tadbirlarini amalga oshirishni talab etadi.¹²

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bozor iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan kichik mulkdorlar sinfini shakllantirishga, mamlakatimiz bozorini iste‘mol tovarlari va turli xizmatlar bilan boyitish imkoniyatini yaratishga, har bir oila daromadini ko‘paytirishda hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish evaziga ishsizlik masalasini hal etishga zamin yaratadi. Respublikada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilayotgani bois, bu sohada ish bilan band bo‘lgan aholi soni yil sayin ortib bormoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta‘kidlaganidek: “Ana shu yo‘nalishdagi islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000-yildagi 31 foizdan bugungi kunda 56,7 foizga yetgani yoki 1,8 barobar oshganini alohida ta‘kidlashni istardim. Hozirgi paytda ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 98 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band jami aholimizning 77 foizdan ortig‘i-shunga e‘tibor bering-mazkur tarmoqda mehnat qilayotgani, o‘z peshona teri bilan nafaqat o‘z oilasini boqayotgani, balki mamlakatimiz boyligiga boylik qo‘shayotgani, avvalo, mustaqillik bizga ochib bergan imkoniyatlarning yaqqol isbotidir”.¹³

¹²Zokirova N., Abdurahmonov O. Inqiroz: oqibatlar, bartaraf etish, mehnat muammolari va yangi marralarga chiqish. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 136-138-betlar

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi. 2016 yil. 16-yanvar.

Bugungi kunda dehqon xo'jaliklarini tashkil etishda qator yutuqlarga erishilmoqda va ularni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

-xo'jalikni tashkil etishning ixchamligi va ularning bozor muhitiga tezda moslashuvchanligi;

-xo'jalik a'zolarining ma'lum bir oilaga mansubligi;

-oila mablag'lari hisobidan ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatining mavjudligi;

-mehnatni tashkil qilish va xo'jalikni boshqarishdagi qulayliklar.

Shunday qilib, mamlakatda amalga oshirilayotgan oqilona iqtisodiy siyosat tufayli bandlikning kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik kabi aholining tadbirkorlik qobiliyati va bunyodkorlik mehnati salohiyatini namoyon qilishga ko'maklashuvchi samarali shakllari rivojlandi. Umummilliy ish bilan bandlik xizmatlari muayyan mehnat bozori segmentini tartibga solib turadi.

Mamlakatlarning rivojlanish tajribasini umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, bo'sh ish joylarining unchalik ko'p bo'lmagan qismi ular yordamida to'ldiriladi, lekin ular birmuncha past va o'rtacha malaka talab qiladigan ish o'rinlaridir.

Masalan, Shvetsiyada ish qidirayotganlarning qariyb 35% bandlikka ko'maklashuvchi markazlari bilan aloqaga kirishadi, Fransiyada ish qidiruvchilarning qariyb 15%, AQShda esa 5%ga yaqini ular xizmatidan foydalanadi. Hisoblab chiqilishicha, ish qidiruvchilarning ko'pchiligi (50%dan ortig'i) ish joylari haqidagi axborotlarni do'stlari yoki qarindoshlaridan oladi.

Davlat ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholiga quyidagilarni kafolatlaydi:

-ishsizlik nafaqasini to'lash;

-mehnat organlarining yo'llanmasi bo'yicha kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish davrida stipendiya to'lanishi hamda shu davrni umumiy mehnat stajiga qo'shish;

-ishsiz shaxsga qaramog'idagilarini hisobga olgan holda, moddiy yordam berish;

-haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish imkoniyati;

-mehnat organlarining taklifiga binoan ishlash uchun ixtiyoriy ravishda boshqa yerga ko'chish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash.

Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari tarkibiy qismlarining faoliyatida ish kuchiga bo'lgan talabni oshirish bo'yicha davlat siyosatini bajarishga qarab mexanizmning ishlab chiqilishi oqilona ish bilan bandlikni ta'minlash sharti hisoblanadi.

Tashkiliy jihatdan mehnat bozori ijtimoiy institutlar tizimi sifatida maydonga chiqar ekan, mazkur bozorda bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatlarining samaradorligini oshirish aholining oqilona ish bilan bandligini shakllanishida muhim tashkiliy tuzilmalar majmui hisoblanadi. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatlarining samaradorligini oshirishning asosiy maqsadlari mehnatdan foydalanish muammolari, uning samaradorligini oshirish bilan bog'liqdir. Amaliyotda aholining oqilona ish bilan bandligi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi bozor muvozanatiga erishishni bildiradi. Bunday holda ishsizlikning yo'l qo'yilishi mumkin (tabiiy) darajasi vujudga keladi.

Bunday muvozanat ish beruvchilar va "mehnat qobiliyati" kishilarining iqtisodiy manfaatlarini eng muqobil darajada amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunda ishchi kuchiga kasbiy malaka tayyorgarligi bo'yicha mos narxlar belgilanadi. Xuddi shular tufayli, aholining oqilona ish bilan bandligi, ijtimoiy takror ishlab chiqarish va ishchi kuchining qiymati asosida "mehnat qilish qobiliyati"ni bozorda sotish uchun taklif qilganlarning turmush darajasi shakllanishi ham ta'minlanadi.

Aholining oqilona ish bilan bandligini ta'minlashning takomillashtirilgan yangi mexanizmi quyidagi asosiy shart-sharoitlarning ta'sirini tartibga solishi lozim: ishchi kuchiga talabning oshishi va unga taklifning kamayishi; yollanma ish kuchiga mehnat haqini eng past miqdorini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan minimal iste'mol budjetidan kam bo'lmagan holda belgilash; mehnatga qobiliyatli o'smirlar, pensionerlar, ko'p bolalik ayollar va nogironlar ish bilan bandligini

o'shishni rag'batlantirish; ishsizlarning malakasi, raqobat qobiliyati va safarbarligini oshirish, Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari infratuzilmasining samarali rivojlanishini ta'minlash va boshqalar.

O'zbekistonda zamonaviy mehnat bozori hali mezon asosida o'zining yaqqol qiyofasiga ega bo'lib ulgurganicha yo'q. Bu jihatdan uni birinchi turga intiluvchi aralash mehnat bozori deb atash mumkin.

Mazkur bozorning shu jihatlarini e'tiborga olgan holda uning infratuzilmasi rivojlanishining barcha demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlarini quyidagi mezonlarda o'z aksini topadi:

-ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida bozor muvozanatiga erishish; mehnat bozorining sifat ko'rsatkichlarini ta'minlash;

-aholining ish bilan bandligiga oid axborotlar tizimini takomillashtirish;


-kadrlarning kasbiy harakatchanligi va eksportabelligini rivojlantirish;

-ishsizlikni kamaytirish; malakali mehnat bozorini shakllantirish va boshqalar.¹⁴

Mazkur mezonlar quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi: mavjud va yangi yaratilgan ish joylarining soni; mulkchilikning turli xil shakllari; aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YaIMning hajmi; ishchi kuchi eksportidan kelgan tushum miqdori; aholining migratsion oqimi; eksport qilingan ishchi kuchi salmog'i; mehnat resurslarining malaka va ma'lumot darajasi; mehnat bozoridagi raqobatbardoshlik; mehnat bozori institusion tuzilmalari samaradorligi; samarali va egiluvchan mehnat bozorini shakllantirish va rivojlantirish; malakali kadrlardan foydalanish samaradorligi; malakali kadrlarni tayyorlashda moddiy-texnik ta'minot; oliy va o'rta toifadagi mutaxassislar salmog'i; ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan shaxslar va ishsizlik soni hamda ularning nafaqa miqdori, yangi ishga joylashtirish, xizmat bo'yicha boshqa ishga o'tish munosabati bilan qayta tayyorgarlik, yangi ish joyiga ko'chirib keltirish; mehnat bo'limida hisobda bo'lgan bo'sh ish o'rinlari va lavozimlarining to'liq ro'yxati;

¹⁴ Arabov N.U. Mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanishi. Diss.T., 2011y. - 47b.

mehnat bo'limida hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha ma'lumotlar; ishsizning huquqlari va majburiyatlari to'g'risidagi to'liq axborot; ish beruvchilar to'g'risidagi axborot; yangi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash imkoniyatlari to'g'risidagi axborot; mulkchilikning turli xil shakllari va h.k.



4-rasm. Davlat ish bilan bandlik xizmati va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri.¹⁵

2015-yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturi bo'yicha tadbirlarining amalga oshirilishi mamlakatimizning barcha hududlarida prognoz parametrlari bajarilishini ta'minlandi va 980 mingta ish o'rni tashkil etildi. 2016-yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturining tasdiqlangan parametrlariga muvofiq, 990 mingta ish o'rni tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

¹⁵ Arabov N.U. Mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanishi. Diss.T., 2011y. -108b.

1.3. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy-huquqiy asoslari

Mustaqillikning dastlabki yillarida kichik biznes sohasiga keng imkoniyatlar yaratilib, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraldi. Tadbirkorlik va kichik biznesning rivoji uchun mustahkam qonunchilik va huquqiy baza shakllantirilgani va muntazam takomillashtirib borilayotgani, biznes uchun imtiyoz va preferensiyalar berish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash hamda modernizatsiya qilish masalalarida davlat tomonidan tizimli ravishda yordam ko‘rsatib kelinmoqda.

Shu bois so‘nggi yillarda bir qator qonun va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va ularning ijrosi sohani sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish imkonini berdi. Yangi tahrirdagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”, “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”, “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”, “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-qoidalarini to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari shular jumlasidandir. Ushbu qonunlar tizimida fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi uchun barcha asosiy kafolat va shartlar mustahkamlab qo‘yilgan. Xususiy mulkchilikni rivojlantirish yo‘lida ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, kichik biznes uchun yangi imtiyozlar yaratish mamlakatimiz iqtisodiy qudrati va eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, huquqiy asos yaratib berish, rag‘batlantirishga qaratilgan bir qancha yangi qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida korxonalarni kichik va o‘rta biznes subyektlariga kiritish me‘yorlari belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi “Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2005-yil 20-iyundagi “Mikrofirmalar va kichik korxonalar rivojlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2005-yil 24-iyundagi “Tadbirkorlik subyektlarining xo‘jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to‘g‘risida”gi farmoni, hamda 2005-yil 15-iyundagi “Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni qonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilindi. Bu qarorga muvofiq mikrofirmalar va kichik korxonalar 2005-yil 1-iyuldan davlat soliq xizmati organlariga soliqlar, yig‘imlar, ajratmalar va boshqa majburiy to‘lovlarni endi har oyda emas, balki chorakda bir marta topshirishga o‘tkazildi. Shu bilan birga yuqoridagi farmon va qarorlar asosida tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari faqat sud orqali amalga oshiriladi, noqonuniy aralashuviga barham berildi. Mikrofirmalar va kichik korxonalar rivojlantirish borasidagi qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risidagi farmoniga ko‘ra, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun, 2005-yil 1-iyuldan boshlab yagona soliqni to‘lash, budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi va maktab ta’limi jamg‘armasiga majburiy ajratmalar o‘rniga yagona soliq to‘lovi joriy etildi. Belgilangan yagona soliq to‘lovi stavkalari mikrofirma va kichik korxonalar uchun soliq yukini kamaytirishni ko‘zda tutadi. Joriy etilgan ushbu me‘yorlar mikrofirmalar va kichik korxonalar sonining o‘sishi uchun rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida kichik biznesning YaIMdagi ulushining oshishiga olib keladi. Tadbirkorlik subyektlarining qonuniy manfaatlari himoyasini ta’minlash va sohani jadal rivojlantirishda muhim omil bo‘lgan 2011-yil 12-maydagi “Tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatga olish va tashkil etish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Bu qonunga muvofiq jamiyat ustav fondi (ustav kapitali)ning miqdori jamiyatni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlarni taqdim etish sanasidagi holatga ko'ra qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 50 baravaridan kam bo'lmasligi belgilangan edi. Qarorga ko'ra ushbu miqdor 2011-yil 1-iyundan boshlab eng kam oylik ish haqining 40 barobaridan kam bo'lmagan miqdorda belgilandi. Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olish, ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash, eksport tovarlarini bojxonada rasmiylashtirish tartib-taomillari ham sezilarli darajada soddalashtirildi. Gap shundaki, ayni paytda biznesni ro'yxatga olish jarayoni "bir darcha" tamoyili asosida atigi ikki kun ichida amalga oshirilayaptiki, bu eng yaxshi xalqaro amaliyot talablariga to'la mos keladi.¹⁶ Huquqiy bazaning to'liq yoki bir me'yorda yuritilmasligi tadbirkorlik faolligi darajasiga katta salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi amaliyotda tadbir etilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosini tashkil etayotgan bir butun huquqiy baza mavjuddir.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Biz bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida quyidagi xulosalarga keldik. Ya'ni respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab quvvatlash natijasida ularning eksportbop, raqobatlasha oladigan sifatli tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni ta'minlaydigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishini ta'minlaydigan barcha sharoitlar mavjud.

Hozirgi vaziyatning o'ziga xosligi shundan iboratki, mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholining o'sish sur'atlari ma'lum darajada bir xil emasligi, mehnat resurslari sonining o'sishi bilan jamoat xo'jaligidagi ish bilan bandlik dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlikning qattiqligidir. Mehnat resurslari tarkibiga aholining tabiiy harakati o'zgarishining ko'payishi ta'sir ko'rsatmoqda.

Iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish sohasining yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishi biz uchun eng muhim ustuvor yo'nalish bo'lgan - aholi bandligini

¹⁶ Ernazarod U. Tadbirkorlik ravnaqi va huquqiy asos. "Xalq so'zi" gazetasi. 2013 yil 20- fevral, 35-son.

ta'minlash, avvalambor, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish uchun zarur sharoitlar yaratdi.


Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida davlat ish bilan bandlik siyosati viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining tarkibiy qismi sifatida mehnat potensialidan samarali foydalanish va uning rivojlanishi bo'yicha ish bilan bandlik muammolarini yechishga yo'naltirilishi zarur. Bozor munosabatlari sharoitida aholini ish bilan bandligi va ishsizligi bir-biriga tez almashinishi mumkin. Viloyatda aholini ish bilan ta'minlash va ishsizlikni bartaraf etishda davlat ish bilan bandlik xizmati faoliyatining ahamiyati kattadir. Chunki viloyatda ishchi kuchiga bo'lgan talab va uning taklifi aynan mehnat bozorida o'zaro to'qnashadi.

Shu bois, bu infratuzilmani samarali rivojlantirish viloyatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mehnat bozorining mehnat munosabatlarini tartibga solishning samarali mexanizmini takomillashmaganligi bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatlarining samaradorligini oshirishga va buning natijasi o'laroq aholining oqilona ish bilan bandligini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

II BOB. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK MENEJMENTI VA UNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

2.1.O‘zbekiston Respublikasi hududlarida kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatish tizimi tahlili va aholi bandligi menejmenti

Respublikamizning iqtisodiy taraqqiyoti, iqtisodiy mustaqilligi, xalqining faravon turmush darajasi, qolaversa mehnat resurslarining ish bilan bandlik darajasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivoji bilan bog‘liqdir. Mamlakatimizda biznesni yuritish bilan bog‘liq barcha jarayonlarni yanada liberallashtirish, soddalashtirish va arzonlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznesning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi tutgan o‘rni tobora mustahkamlanib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga davlat tomonidan katta e‘tibor berilishi hamda qo‘llab-quvvatlanishi natijasida uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan yilga ortib bormoqda. Xususan, 2014-yilda 56 foizni, 2015-yilda 56,7 foizni, yoki 2002-yilga nisbatan 22,9 foizga o‘ydi.



1-diagramma. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YIM dagi ulushi, foizda.¹⁷

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlarida ham o‘zgarishlar yuzaga keldi. Bu holat ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi asosida ro‘y beradi. Umumiy sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda istiqbolda o‘zgarishlar sanoat sohasiga talab natijasida sodir bo‘ladi, shuningdek qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalarining rivojlanish hisobiga bu soha yanada yuksaladi. Hududlarning mashinasozlik va metallga ishlov berish, yengil sanoat, ayniqsa, trikotaj, tikuvchilik buyumlari tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sohalarida kichik biznesning o‘rni va ulushi yetarli darajada emas.

1-jadval

Respublika YaIMda hududlardagi kichik korxonalarining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushining o‘sib borishi (%).¹⁸

Respublika hududlari	2000 y	2005 y	2010 y	2015 y	2015 yilda 2000 yilga nisbatan o‘sishi
O‘zbekiston Respublikasi	31,0	38,2	52,1	66,1	213,2
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	26,9	48,9	57,9	66,9	248,7
Viloyatlar					
Andijon	32,9	38,7	49,9	61,1	185,7
Buxoro	33,0	44,4	51,1	57,8	175,2
Jizzax	37,1	64,4	73,0	79,8	215,1
Qashqadaryo	25,8	38,4	45,8	58,4	226,4
Navoiy	21,5	20,9	33,5	46,1	214,4
Namangan	33,4	51,4	75,4	81,4	243,7
Samarqand	44,3	54,5	68,3	78,9	178,1
Surxondaryo	39,1	45,9	64,8	81,7	208,9
Sirdaryo	38,9	58,8	72,5	80,6	207,2
Toshkent	34,0	36,3	45,6	54,9	161,5
Farg‘ona	32,0	43,9	64,7	82,3	257,2
Xorazm	34,2	54,2	78,3	81,9	239,5
Toshkent sh.	41,5	54,3	70,2	79,1	190,6

¹⁸ Karimov I.A. 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012- yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi” mavzusidagi ma‘ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma, “O‘qituvchi”.:T 2012.

Vaholanki barcha sohada ishlab chiqarish faolligi tenglashsa, ijobiy natijalarga erishamiz. Respublikamizda kichik korxonalar tomonidan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishning o'sishini yaratilgan imkoniyatlardan faollik bilan foydalanish evaziga ta'minlandi.

Ana shu yo'nalishdagi islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000-yildagi 31 foizdan bugungi kunda 56,7 foizga yetgani yoki 1,8 barobar oshdi. Hozirgi paytda ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band jami aholimizning 77 foizdan ortig'i mazkur tarmoqda mehnat qilmoqda.

1-jadval tahlillari shuni ko'rsatadiki, respublika YaIMda hududlardagi kichik korxonalarining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushining dinamikasi 2015-yilda 2000-yilga nisbatan o'sishi kuzatilgan. Umumiy respublika miqyosida 213,2 % ga oshgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha o'sish ko'rsatkichi 248,7 % ni tashkil etgan. Qolgan barcha viloyatlar ko'rsatkichlari ham ijobiy natijalardan dalolat beradi.

Respublikamiz kichik biznesning bunday ko'rsatkichlarga erishishi tadbirkorlik faolligi orqali amalga oshadi. Istiqbolda kutiladigan natijalar asosan kichik tadbirkorlikning faol rivojlanishi evaziga ro'y beradi. Bu esa ular tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot miqdorining o'sish dinamikasini ta'minlaydi.

Hududlar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmining istiqbolda o'sib borish dinamikasini korxonalar miqdorining o'sib borish holati bo'yicha tahlil etsak, bu holat qo'shimcha yangi kichik korxonalarining tashkil etilishi hisobiga amalga oshadi. Kichik biznes sohasining rivojlanishining ahamiyati iqtisodiyotda raqobat muhitini ta'minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ikkilamchi bandlikni ta'minlash, ilmiy-texnikaviy inqilobni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish; soliq tushumlari hajmining o'sishini ta'minlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi.

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik korxonalari tomonidan mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi (mln. so'm).¹⁹

Hududlar	2000 y	2005 y	2010 y	2015 y	2015 yilda 2000 yilga nisbatan o'sishi
O'zbekiston Respublikasi	892573,0	956838,2	1089938,7	1223039,2	137,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	18786,6	22919,6	24982,3	27045	143,9
viloyatlar					
Andijon	70178,8	74249,1	82564,9	90880,7	129,5
Buxoro	46619,4	51934,0	55413,5	58893,1	126,3
Jizzax	31281,6	39821,3	43245,9	46670,5	149,2
Qashqadaryo	61485,8	69233,0	74356,2	79479,4	129,3
Namangan	50919,4	60084,8	74505,1	88925,4	174,6
Samarqand	67851,2	74772,0	85090,5	95409,0	140,6
Surxondaryo	82241,4	87833,5	104434,0	121034,5	147,2
Sirdaryo	34155,4	40952,3	46562,7	52173,1	152,8
Toshkent	110782,4	112665,7	123143,6	133621,5	120,6
Farg'ona	104838,6	117314,3	141715,6	166116,9	158,5
Xorazm	36708,7	44050,4	54666,5	65282,6	177,8
Toshkent sh.	219770,8	247901,4	287813,5	327426,6	148,9
Navoiy	24940,4	25065,1	29100,5	33135,9	132,9

Davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning bevosita elektron shakllari joriy etilgani tufayli 2015-yilda 42 ming 800 ta tadbirkorlik subyekti internet tarmog'i orqali yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatga olingan. Ular 260 turdagi interaktiv xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. 2013-2014-yillarda tadbirkorlar va fuqarolarga 102 mingdan ortiq xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatkich 420 mingdan oshdi. Bugungi kunda soliq va statistika hisobotlari 100 foiz elektron shaklda internet tarmog'i orqali taqdim etilmoqda. Shu yilning 1-yanvaridan boshlab mamlakatimizning barcha hududlarida tadbirkorlik subyektlariga "yagona darcha" tamoyili asosida davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari faoliyat boshladi.

¹⁹ O'zbekiston statistikasi axborotnomasi asosida hisoblandi.

O‘zbekiston Respublikasi “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 6-apreldagi “Aholini bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PK-616 - sonli Qarori, hamda Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 8-maydagi 95-sonli 2007-yil 6-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PK–616- sonli “Aholi bandligini oshirish, hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorini amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, tuman (shahar) Bandlikka ko‘maklashuvchi Markazining vazifalari, funksiyalari, vakolatlari va faoliyatining tashqiliy asoslarini belgilab beradi.

3-jadval


O‘zbekiston Respublikasi hududlarida yaratilgan ish o‘rinlari soni dinamikasi (birlik).²⁰

Hududlar	Yillar			2015 yilda 2013 yilga nisbatan o‘zgarishi (%)
	2013 y	2014 y	2015 y	
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	49 478	59118	56 942	115,0
viloyatlar:				
Andijon	78 364	78902	78 828	100,5
Buxoro	73 370	73998	73 834	100,6
Jizzax	43 858	44317	44322	101,0
Qashqadaryo	88 335	88444	88 799	100,5
Navoiy	40 849	41321	41313	101,1
Namangan	74 984	75039	75448	100,6
Samarqand	93 427	93020	93 891	100,4
Surxondaryo	65 615	66706	66079	100,7
Sirdaryo	39 852	40920	40316	101,2
Toshkent	86 500	86500	86 964	100,5
Farg‘ona	91 805	92173	92269	100,5
Xorazm	59 774	60182	60238	100,7
Toshkent sh.	81 253	81361	81 717	100,5
O‘zbekiston bo‘yicha	973 497	983600	987000	101,4

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma’lumotlari

Yurtimiz hududlarida ish o‘rinlarini yaratishga alohida e‘tibor qaratilib, ularning soni yil sayin ortib bormoqda (3-jadval). Aytish joizki, 2015-yilda ish o‘rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta‘minlash dasturining quyidagi asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha aniq chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tasdiqlangan prognoz parametrlarining bajarilishiga ko‘maklashdi.


2015-yilda iqtisodiyotimizni yuqori sur‘atlar bilan barqaror rivojlantirishga erishganimiz aholi daromadlarini yanada ko‘paytirish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratdi. Yurtimizda tashkil etilgan ish o‘rinlarining qariyb yarmi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni hamda uy mehnatining barcha shakllarini rivojlantirish hisobidan yaratilganidan dalolat beradi.



2-diagramma. Barcha yo‘nalishlar bo‘yicha yangi ish o‘rinlari.²¹

Aytish joizki, so‘nggi yillarda yurtimizda minglab yangi ish o‘rinlarini yaratishga e‘tibor qaratilgani bois aholining bandlik darajasi yil sayin ortib, 2015-yilda bu ko‘rsatkich 2013-yilga nisbatan 101,4 foizni tashkil etmoqda. Mehnat resurslari balansiga ko‘ra, ish bilan band aholi tarkibi iqtisodiyotning rasmiy sektorida bandlar, iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar va mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet elga ketgan shaxslardan iborat.

²¹ O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma‘lumotlari



3-diagramma. O‘zbekiston Respublikasida ish bilan bandlik tarkibining taqsimoti, ming kishi.

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, mustaqillik yillar davomida iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo‘lganlar soni - 15 foizga, norasmiy sektorda band bo‘lganlar soni - 3,7 foizga, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet elga ketgan shaxslar soni esa 4,8 foizga ko‘paygan. Biroq olib borilgan tahlillar ish bilan band bo‘lganlar tarkibida o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki,, mustaqillik yillarida Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan hamda izchil olib borilayotgan puxta o‘ylangan, samarali iqtisodiy siyosat pirovardida mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibligini ta‘minlash uchun mustahkam zamin yaratdi. Bu esa, yuqorida ta’kidlanganidek, global jahon iqtisodiyotida hali - beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2015-yilda iqtisodiyotimizni barqaror sur‘atlar bilan rivojlantirishning davom ettirilishiga, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishning ta‘minlanishiga, mamlakatimizning dunyo bozoridagi o‘z pozitsiyasini mustahkamlashiga asos bo‘ldi.

2.2. “MUROD MATQURBANOV” Xususiy korxonasi faoliyatining tashkiliy - iqtisodiy tavsifi

“MUROD MATQURBANOV” Xususiy korxonasi ta’rischi Matkurbanov Murod Rimberganovich hisoblanadi. Korxonada Nizom fondi bir million so‘mlik pul mablag‘i va mulkdan iborat. Korxonada Gurlan tumani Hokimligida 2013-yil davlat ro‘yxatidan o‘tgan kundan boshlab yuridik shaxs huquqiga ega.

Korxonada o‘z mulkiga, mustaqil balansiga, o‘z ismi ko‘rsatilgan dumaloq muhriga, shtampiga, ramziga, tovar belgisiga, blankalariga va boshqa rekvizitlariga ega. Korxonada to‘la xo‘jalik hisobida ushbu Nizomiga, korxonalar, tadbirkorlik, mulkchilik to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlariga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko‘rsatadi, o‘zining xo‘jalik faoliyati natijalari uchun javobgar bo‘ladi, sudda yoki xo‘jalik sudida da‘vogar yoki javobgar sifatida qatnashadi. Korxonada egasi ishlab chiqarish, tijorat va yuridik mustaqillikka ega.

Korxonaning manzilgohi: 220300 Xorazm viloyati Gurlan tumani Yangibog‘ ko‘chasi 38-uy pr.3.

Korxonada ko‘rsatilgan maqsadlarini amalga oshirish uchun quyidagi faoliyat turlarini bajaradi:


-turli markadagi avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlash, vulkanizatsiya servis xizmatlari ko‘rsatish va avtomobillarni yuvish shaxobchalarini tashkil qilish;

-aholiga maishiy va pullik xizmatlar ko‘rsatish;

-tikuvchilik, to‘quvchilik faoliyati;

-xalq ist‘emol mollari ishlab chiqarish va sotish.

Quyida biz “MUROD MATQURBANOV” Xususiy korxonasining tashkiliy tuzilishini ko‘rishimiz mumkin.



5-rasm. “MUROD MATQURBANOV” Xususiy korxonasi boshqaruv tashkiliy tuzilmasi.²²

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, korxonaning tashkiliy tuzilmasi chiziqli tashkiliy tuzilma turiga mansub bo‘lib, korxonada uncha ko‘p bo‘lmagan miqdordagi ishchi-xodimlar faoliyat olib boradi. Buning o‘ziga xos ijobiy xususiyatlari ham bor bo‘lib, rahbar - xodim o‘rtasida aloqa almashish jarayoni tez amalga oshadi, boshqacha aytganda, vaqt omili tejaladi. Yana bir asosiy sabablardan biri bu – ish jarayonida chalkashliklarni ko‘p emasligi hamda nazorat funksiyasining yaxshi yo‘lga qo‘yish mumkinligidir. Shularni hisobga olganda, korxonaga uchun bu tashkiliy struktura eng optimaldir.


Har bir korxonaga, tashkilot yoki xo‘jalik yurituvchi subyektning salohiyatini ko‘rsatib beruvchi hamda qay darajada samarali faoliyat ko‘rsatayotganligini belgilab beruvchi, ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri bu iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkilar, raqamlar, statistik ma’lumotlardir. Quyida biz “MUROD MATQURBANOV” Xususiy korxonasi rivojlanishi va kengayishi bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy-moliyaviy ko‘rsatkichlari bilan tanishamiz va ularni tahlil qilamiz.

²² “MUROD MATQURBANOV” Xususiy korxonasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

“MUROD MATQURBANOV” XK faoliyatining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari.²³

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2013 y	2014 y	2015 y
1.	Xizmat ko‘rsatish hajmi	mln.so‘m	10,52	12,76	14,76
2.	Sotilgan (mahsulotlar) tovarlar	mln.so‘m	10,52	12,76	14,76
3.	Mahsulotning tannarxi	mln.so‘m	35,85	38,44	49,37
4.	Soliq to‘languncha bo‘lgan foyda	mln.so‘m	50,89	55,20	68,78
5.	Sof foyda	mln.so‘m	28,89	30,27	34,03
6.	Asosiy fondlar qiymati	mln.so‘m	9,87	11,25	10,00
7.	Ishchi–xodimlar soni	Kishi	6	6	6
8.	Shu jumladan asosiy ishlab chiqarish xodimlari	Kishi	5	5	5
9.	O‘rtacha ish haqi	so‘m	390123	421925	510000

Ushbu jadvalda ham biz korxonaning xizmat ko‘rsatish hajmi yil sayin oshayotganini ko‘rishimiz mumkin. Sof foyda 2015-yilda bazis yilga nisbatan 12,4% ga oshgan. Xodimlarning ish haqi esa huddi shu yilda 2013-yilga nisbatan 30,7% ga oshgan.



4-diagramma. “MUROD MATQURBANOV” XK faoliyatining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi.²⁴


²³ “MUROD MATQURBANOV” Xususiy korxonasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

²⁴ “MUROD MATQURBANOV” Xususiy korxonasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Diagramma bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, xizmat ko'rsatish hajmi 2015-yilda 2013-yilga nisbatan 118%ga oshgan. Mahsulot sotishdan tushgan tushum 2015-yilda 2013-yilga nisbatan 108,6 % ga oshgan. Sotishdan olingan sof tushum 2015-yilda 2013-yilga nisbatan 136,2 % ga oshgan.

Quyidagi diagramma ma'lumotlaridan shuni kuzatish mumkinki, korxonaning aksariyat ko'rsatkichlari o'sish tendensiyasiga ega. Shunisi e'tiborga molikki, korxonaning xarajatlari haqiqatda rejada ko'zda tutilgandan kamroq. Xususan, korxonaning sotish xarajatlari 84,5%ni tashkil qilgan, ma'muriy xarajatlari esa 96,4%ni tashkil qilgan.

Buning asosiy sabablaridan biri, korxonaning arzon yetkazib berish kanallarini (distribyuterlar) topganidir. Shu bilan birga korxonada to'g'ri ish taqsimoti sababli boshqaruv xarajatlari ham qisqartirishga erishgan.



5-diagramma. Korxonada faoliyatida xarajatlar dinamikasi.²⁵

Korxonaning rentabelligi ham uning qay darjada faoliyat olib borayotganini va olib borganini ko'rsatuvchi muhim omillardan biridir. Shunga ko'ra, korxonaning rentabelligi 105,3% ni tashkil etgan bo'lib, umumiy solishtirganda bu holat korxonada ijobiy ko'rsatkichdir. Korxonada tashkil etilganiga hali ko'p davr bo'lgani yo'q. Ammo bu davr mobaynida korxonada iqtisodiy va moliyaviy jihatdan ancha o'sganini ko'rishimiz mumkin.

²⁵ "MUROD MATQURBANOV" Xususiy korxonasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.


Jumladan, asosiy ishchilar, yordamchi xizmat ko‘rsatish xodimlari va ma‘muriy-boshqaruv xodimlari soni 3 yil davomida o‘zgarmagan.

5-jadval

“MUROD MATQURBANOV” XK xodimlarining harakatini tahlili.

№	Xodimlar	2012 y		2013 y		2014 y	
		kishi	%	Kishi	%	Kishi	%
1.	Asosiy xizmat ko‘rsatish xodimlari	4	66	4	66	4	75
2.	Yordamchi xizmat ko‘rsatish xodimlari	1	17	1	17	1	12,5
3.	Ma‘muriy-boshqaruv xodimlari	1	17	1	17	1	12,5
	Jami	6	100	6	100	6	100

Garchi shunday bo‘lsada korxonaning moliyaviy va iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli ijobiy tomonga o‘sib borgan. Korxonaning 3 yil davomida qo‘shimcha ishchi-xodimlarga ehtiyoj sezmaganing asosiy sababi bu - xizmat ko‘rsatish sohasida korxonada faoliyat olib borayotgan ba‘zi ishchi xodimlarning funksional vazifalarining integratsiyalashganidir. Ya‘ni korxonada ish jarayoni shunday samarali tashkil etilganki, ishchi-xodimlar o‘rtasida kompetensiya oshgan. Bu holat esa har qanday korxonaning asosiy yutuqlaridan biridir. Garchi korxonada ma‘lum darajada bandlik muammosi hal etilmagan bo‘lsada, ishchi xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy rag‘batlantirish darajasi oshgan. Bu ishchilarning yanada yaxshiroq ishlashga undashdan dalolat beradi.



6-diagramma. Korxonada faoliyatida o‘rtacha ish haqi dinamikasi.

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Xususan, ishchilarning oylik ish haqi 2014 yilda 2013-yilga nisbatan 20,9 %ga yoki 90 ming so'mga ko'paygan. Yordamshi xizmat ko'rsatish xodimlari esa 2014-yilda bazis yilga nisbatan 7,1 %ga oshgan yoki 28 ming so'mga ko'paygan. Korxonadagi ma'muriyat xodimlarining ish haqi esa 2015-yilda bazis yilga nisbatan 13,8% ga oshgan.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Ikkinchi bobimizning asosiy vazifasi tahliliy ishlarni amalga oshirishdan iborat. Unga ko'ra tahlillar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, ya'ni tadbirkorlik subyektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi bo'yicha mutlaqo yangi mexanizm joriy etildi. Unga ko'ra, ushbu tarmoqlar ishini yuritadigan tashkilotlarning hududiy korxonalariga texnik shartlarni olishdan tortib muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni amalga oshirib, ularni tadbirkorlarga tayyor holda topshirish vakolatlari berildi.

Bozor munosabatlari sharoitida aholining ish bilan bandligini ta'minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, ishsizlik muammosining mavjudligi bozor iqtisodiyotining ajralmas xususiyatidir. Shunday ekan, ishsizlik muammosini o'rganishdan asosiy maqsad aholining ish bilan bandligini oshirish orqali mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Tahlil yakunidan so'ng quyidagilarni amalga oshirish lozimdir, ishchi xodimlarning o'rtacha yillik ish haqi o'sish dinamikasi ega. Buning asosiy sababi shuki, korxonadagi faoliyatning hamda samarali marketing faoliyatini amalga oshirish orqali daromad olish hamda shu munosabat bilan ishchilarga nisbatan moddiy rag'batlantirishlarning amalga oshirilishidir. Korxonaning xarajatlari yil sayin kamayib, daromadlari esa oshib borayotganidan dalolat beradi. Buning asosiy sababi korxonadan sifatli xizmat ko'rsatilgani hamda samarali marketing faoliyatini olib borilganidir.

III BOB. IQTISODIYOTNING BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING YO'LLARI

3.1. Iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining innovatsion istiqbollari

Bugungi kunda jamiyat yangi bosqich - axborot texnologiyalari va kompyuterlashgan tizimlar, yuqori ishlab chiqarish texnologiyalari rivojlangan bir davrda, innovatsion texnologiyalar, innovatsion tizimlar va inson faoliyatini turli xil sohalarini innovatsion tashkil etishni o'z ichiga oladi. Buning pirovard natijasi sifatida mamlakatda innovatsion iqtisodiyotning yaratilishi nazarda tutiladi. Tajribalar axborot va eng yangi texnologiyalar bozorining yirik firmalar tomonidan monopollashtirilishi tendensiyalarini bartaraf etishning yuksak samarali vositasi sifatida kichik innovatsion korxonalar (KIK) ni davlat tomonidan jiddiy qo'llab - quvvatlashning muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlamoqda. Kichik innovatsion biznesni tartibga solish jarayonida davlat apparatining asosiy maqsadi tahliliy faoliyat, ilmiy va joriy etish faoliyatining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha egiluvchan soliq siyosatini shakllantirish, KIK ni huquqiy, yuridik va moliyaviy himoyalashdan, ya'ni barqaror rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat bo'lmog'i kerak.


Mamlakatimiz bozor iqtisodiyoti sharoitda iqtisodiy rivojlanishning innovatsion mexanizmini hamda yangi strategiyasini ishlab chiqish va shakllantirishda jahon amaliyotida o'zini oqlagan tajribadan maksimal ravishda foydalanish lozim degan fikr - mulohazalardan kelib chiqqan holda davlat tomonidan qo'llab - quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash mumkin.

Mamlakatimizning yangi innovatsion mexanizmi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-boshqarishning bevosita uslublarini qo'llash hamda xalqaro tajribani inobatga olgan holda yangi tashkiliy-iqtisodiy shakllarini yaratish;

-yangi tashkiliy-iqtisodiy shakllarni faol jalb qilgan holda FTT ni bilvosita uslublar bilan tartibga solish va rag'batlantirish;

-mahalliy hokimiyat darajasida ham xuddi shunday mexanizmni qo‘llash.



6-rasm. Fan-texnika sohasidagi kichik biznesning yanada rivojlanishi borasida davlat siyosati²⁶

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim obyektlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ko‘pchilik mamlakatlarda davlat iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi hisoblanib kelgan (4-rasm). Buning sababi, u muhim makroiqtisodiy funksiyalarni hal etilishiga, bandlikni ta’minlash, halol raqobat muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Ushbu masalaning dolzarbligi va yurtimizda unga berilayotgan e’tiborning katta ekanligini muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning “...innovatsion texnologiyalar va ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishlari uchun ularga zarur shart - sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu masalaga ustuvor ahamiyat bermasdan turib, taraqqiyot haqida so‘z yuritib bo‘lmasligini barchamiz yaxshi tushunamiz, albatta”,²⁷ - deb ta’kidlagan so‘zlaridan ham bilishimiz mumkin.

²⁶ Iqtisodiy adabiyotlardan foydalangan holda talaba tomonidan tuzilgan.

²⁷ I.A.Karimov. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir” nomli ma’ruzasi. //Xalq so‘zi, 2010 y. - 2 b.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish, aholi bandligini oshirish asosida ularning daromadlari, farovonligini ta'minlovchi, jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo'lgan o'rta mulkdorlar sinfini shakllantiruvchi muhim omil, yurtimizni taraqqiyot yo'lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylantirish iqtisodiy siyosatimizning markaziy bo'g'inlaridan hisoblanadi. Shu bois, innovatsion rivojlanishni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga e'tibor yanada kuchaytirilmoqda.

Mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining innovatsion rivojlanishdagi maqsadga muvofiq ishtirokini ta'minlash uchun ushbu sohada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammo va to'siqlarni oldindan aniqlash va bartaraf etish belgilovchi ahamiyatga ega. Innovatsiya sohasidagi mahalliy va xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish asosida biznesning innovatsion faoliyatiga xalal berishi mumkin bo'lgan quyidagi muammolarni taxmin qilish mumkin:

- tadbirkorlik subyektlarining ilmiy tadqiqot muassasalari bilan hamkorligi yetarli darajada emasligi. Mintaqalarda ilmiy tadqiqot faoliyatining keng rivojlanmagani;

- mintaqalarda innovatsion infratuzilmani yetarli darajada rivojlanmagani;

- tadbirkorlik subyektlariga o'z innovatsiyalarini ilgari surish bo'yicha tajriba va ko'nikmalari yetishmasligi;

- mintaqalarning davlat ilmiy-texnik dasturlaridagi ishtirokining sustligi;

- ilmiy sig'imi katta bo'lgan loyihalarga kichik biznes subyektlarining kam jalb etilishi;

- kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha imkoniyatlar to'g'risida yetarlicha axborotga ega emasligi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ilgari surilayotgan innovatsion loyihalarning investitsiyalar kiritish va kreditlari bilan ta'minlash uchun zarur hajmda emasligi va h.k.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'tish davri sharoitida qo'yilgan maqsadga erishish uchun kichik va o'rta biznesning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, texnologiyaning rivojlanish darajasi, ish kuchining malakasi, bozorlar hajmi va boshqa bir qator omillar muhim rol o'ynaydi.

Kichik va xususiy korxonalar butlovchi buyumlar yetkazib berishi, ayrim tugunlar va agregatlarni yig'ish bilan shug'ullanishi va innovatsion faoliyat olib borishlari mumkin. Yirik korxonalar bilan faol hamkorlik qiluvchi kichik va xususiy korxonalar sonini ko'paytiribgina kichik biznes subyektlarining mamlakat YaIMdagi ulushini ko'paytirish vazifasini muvaffaqiyatli hal etish mumkin.


Muhtaram yurtboshimiz aytib o'tganidek, biz qaysi sohada ijtimoiy - iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmaylik, bari bir hamma narsa oxir oqibatda kadrlar masalasiga borib taqalaveradi. Kichik korxonalar rahbari foydani taqsimlashni emas, xarajatni boshqarishni bilishi kerak. Kerak bo'lsa, kichik korxonalar rahbari o'zi uchun, bir tomondan "innovator", ikkinchi tomondan "auditor" bo'lishi kerak. Kichik korxonalar rahbari biznes rejani mukammal tuzishni, menejment va marketing strategiyalarini to'g'ri belgilay oladigan rahbar bo'lishi kerak.

Mamlakatimiz rahbari qayta-qayta ta'kidlaganlaridek, iqtisodiy taraqqiyotga erishmoq istagida ekanmiz, avvalo, har bir tarmoqda tadbirkorlikni, har bir sohada ishbilarmonlikni odatga aylantirishimiz, barcha imkoniyat va salohiyatimizni ushbu maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun safarbar etmog'imiz zarur.

Faqat moliyalashtirishning rivojlangan tizimi asosida innovatsion faoliyat rivojlanishi mumkin. Bozor turidagi iqtisodiyotda mustaqil korxonalar, sanoat kompaniyalari, moliya sanoat guruhlarini, kichik innovatsion biznes, investitsion va innovatsion fondlar, mahalliy boshqaruv idoralari, xususiy shaxslar va h.k. moliyalashtirish subyektlari bo'ladilar. Ularning barchalari u yoki bu shaklda qayta ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadilar va innovatsion faoliyatni rivojlanishida bevosita ishtirok etadilar.

Moliyalashtirishning tashkil qilish tamoyillari moliyalashtirishning manbalarining ko'pligi, tizimning alohida elementlarining egiluvchanligi va dinamikligiga qaratishni va innovatsiyalarni ularni innovatsion faoliyatdan moliyaviy qaytarilishni o'sishini ta'minlovchi tijoratlantirilishi bilan samarali tadbir etilishi kerak.

Buning uchun ikkita asosiy shartga amal qilish zarur: davlatning innovatsion, ilmiy-texnik va sanoat siyosatini faollashtirish va tadbirkorlarni faol investitsion rivojlanishga o'tishga tayyorligi.



7-rasm. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari.²⁸

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimi mulkchilik turi, markazlashtirilganlik darajasi, ham mulk egalarining darajasi va moliyalashtirish shakllari bilan farqlanuvchi shakllar va manbalarning murakkab birikib ketishidan iboratdir. 2014-yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi

²⁸ Iqtisodiy adabiyotlardan foydalangan holda talaba tomonidan tuzilgan.

10,9 foizga o‘tib, AQSh dollari hisobida 14 milliard 600 million dollar bo‘ldi.²⁹

2014-yildagi jami investitsiyalarning 73 foizidan ortig‘i ishlab chiqarish sohasiga va qariyb 40 foizi mashina va uskunarlar xarid qilishga sarflandi.

6- jadval

O‘zbekistonda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari, %.³⁰

Yillar	Jami investitsiyalar	Budjet mablag‘lari	Nobudjet jamg‘armalar mablag‘lari	Tashkilotlar mablag‘lari	Buyurtmachilar mablag‘lari	Xorijiy investorlar mablag‘lari
2000	100	39,6	1,5	14,2	44,3	0,4
2001	100	38,6	1,1	12,9	47,2	0,2
2002	100	41,9	2,4	18,1	37,1	0,5
2003	100	41,5	3,9	13,8	40,1	0,7
2004	100	38,7	5,6	27,6	27,6	0,5
2005	100	44,7	6,5	17,2	31	0,6
2006	100	51,1	6,3	15,9	23,8	2,9
2007	100	47	4	19,5	16,2	13,3
2008	100	46,9	5,4	20,5	25,6	1,6
2009	100	53,8	2,8	17,7	23,6	2,1
2010	100	60,7	5	10,7	21,1	2,5
2011	100	63,2	2,5	12,2	21,7	0,4
2012	100	56,9	2,3	16,8	23,4	0,6
2013	100	58,8	1,4	19,8	19,1	0,9
2014	100	57,8	3,9	21,6	15,9	0,8

Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini rag‘batlantirishdan asosiy maqsad butun ishlab chiqarish tizimini yangilash hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ilmiy-texnik, intellektual va iqtisodiy salohiyatdan foydalanish asosida soha raqobatbardoshligini oshirishdan iboratdir.

ITTKIga xarajatlarning tuzilishini tahlil qiladigan bo‘lsak, moliyalashtirishning asosiy qismi buudjet mablag‘lari asosida amalga oshirilib, ularning solishtirmali vazni 2009-yilda 43,9 mlrd.sumdan 2014-yilda 145,2 mlrd. so‘mga etgan. Jadvaldan ko‘rinib

²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi. 2015 yil. 17- yanvar.

³⁰ Shadiyeva D. The theory of innovative development and its influence on R&D financing// Iqtisodiyot nazariyasi muammolari: talqini va yechimlari: oliy o‘quv yurtlari aro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari –Toshkent, 2015. 97b.

turibdiki, shaxsiy mablag‘lar ulushi oxirgi yillarda ortib bormoqda. ITTKI ishlari mablag‘larining manbaalari tuzilmasida xorijiy mablag‘lar ko‘zga tashlanarli darajada emas. ITTKI tizimida asosiy xarajatlar ITI ga to‘g‘ri kelmoqda, ammo oxirgi yillarda uning hissasi binmuncha oz bo‘lib, 2014-yilda 60% va 149,2 mlrd so‘mni tashkil etgan. Shunga ko‘ra OTM (10.1 mlrd. so‘mdan 33,8 mlrd. so‘mga) va sanoat korxonalarining (5,25 dan 11,9 mlrd. so‘mga) hissalarini oshgan. Oxirgi yillarda ba‘zi fundamental tadqiqotlarga xarajatlar oshib, uning strukturasi jadvalda yaqqol ko‘rinib turibdi.

7-jadval

Sanoat korxonalarining innovatsion faoliyati.³¹

№	Ko‘rsatkichlar	2010 y	2011 y	2012 y	2013 y	2014 y
1	Innovatsiya ishlab chiqaradigan korxonalar soni, jami	289	447	338	842	982
	Jumladan kichik korxonalar va mikrofirmalar	156	67	95	634	722
	Ulardan sanoatda, jami	132	135	136	493	553
	Bulardan kichik firma va mikrofirmalar	71	48	72	414	502
2	O‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsiyalarning hajmi, mlrd. sum.	1,8	1,3	3,6	4,6	5,2
	Jumladan kichik korxonalar va mikrofirmalar	1,1	1,2	0,2	0,4	0,4
	Ulardan sanoatda, mlrd. sum	1,7	1,2	3,5	3,9	4,2
	Jumladan kichik korxonalar va mikrofirmalar	0,1	0,1	0,2	0,3	0,4
3	O‘z kuchi bilan amalga oshirilgan innovatsiyalarni hajmi, jami	1,8	1,3	3,2	4,2	4,9
	Jumladan kichik korxonalar va mikrofirmalar	0.09	0.1	0.2	0.4	0.5
	Ulardan sanoatda, mlrd. sum	1.7	1.1	3.2	3.5	3.9
	Jumladan kichik korxonalar va mikrofirmalar	0.09	0.1	0.2	0.3	0.4

³¹ Основные показатели развития научно-технического потенциала и инноваций Республики Узбекистан за 2014 г.-Т.: Госкомстат РУз, 2015 год.

2010-yildan 2014-yilgacha innovatsiyalarni ishlab chiqarish soni 2,9 marta oshib, 982 taga etgan. 2011-yilga nisbatan kichik tadbirkorlik va mikrofirmalar ulushlari 9 martaga oshgan.

Ulardan sanoat sohasida innovatsiyalarni ishlab chiqarish 3,7 marta ko‘payib, ular asosan kichik biznes subyektlari ulushiga to‘g‘ri keladi. Ushbu holat oxirgi yillarda sanoat korxonalarining innovatsion faoliyati yuqori darajada rivojlanib borayotganiga dalil bo‘la oladi.

Ishlab chiqarishdagi o‘z kuchlari bilan amalga oshirilayotgan innovatsiyalar hajmi ushbu davrda 2,5 marta, shu jumladan kichik korxonalar va mikrofirmalar hisobiga 3,6 marta oshgan.

8-jadval

Tashkilot va korxonalarining innovatsion faolligi.³²

№	Amalga oshirilgan innovatsiyalar soni	2009 y	2010 y	2011y	2012 y	2013 y	2014 y
1.	Amalga oshirilgan innovatsiyalar soni, jami	527	500	842	699	1334	1822
	Jumladan:						
1.1.	Texnologik innovatsiyalar, jami: jumladan	462	462	818	624	1262	1791
	Mahsulotli	229	301	418	290	855	1289
	Jarayonli	233	161	400	334	407	502
1.2.	Marketingli	42	32	9	17	32	43
1.3.	Tashkiliy	23	6	15	58	40	38
2.	Sanoatga texnologik innovatsiyalarni kiritish	231	243	300	264	665	867
3.	Texnologik innovatsiyalarni kiritgan korxonalar soni, jami	140	145	185	164	725	876
	Shulardan sanoatda	77	87	83	67	422	731

Yuqoridagi jadval tahlili shuni ta’kidlaydiki, 2014-yil mobaynida respublikamizda 1822 ta innovatsiyalar tadqiq etilgan, ulardan 1791 tasi yoki 98,2 % texnologik innovatsiyaga to‘g‘ri keladi. Umumiy ko‘rsatkichdan 1289 tasi yoki 71,9 % mahsulotli va 502 tasi yoki 38,9 % jarayonlini tashkil qiladi. 43 ta

³² Основные показатели развития научно-технического потенциала и инноваций Республики Узбекистан за 2014 г. -Т.: Госкомстат РУз, 2015 год.

marketingli va 38 ta tashkiliy ulushga to'g'ri keladi. Sanoatga texnologik innovatsiyalarni kiritish 867 ta yoki 47,5 % tashkil qildi.

Ta'kidlash lozimki, yangi yaratilgan texnologiyalar va programma vositalarining soni 2009-yildan 2014-yilgacha 470 dan 230 gacha pasaydi va 51% tashkil etdi. Asosan past ko'rsatkichlar 2014-yilga to'g'ri kelgan.

Ta'kidlash joizki, hozirgi globallashtirish va jahon iqtisodiy munosabatlaridagi raqobatlar sharoitida aniq bir ishlab chiqarishni ta'minlash, uni modernizatsiya qilish va jahon standartiga javob beradigan darajaga ko'tarish aynan olim va mutaxassislarining innovatsion faoliyatiga bog'liqdir. Respublikamizda innovatsion faoliyatning rivojlantirilishi, birinchidan, yangi bilimlarning paydo bo'lishiga olib kelsa, ikkinchidan, bu innovatsion bilimlarni amaliyotga tatbiq etilishi orqali iqtisodiyotimizning intensiv tarzda rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Shuning uchun, bugun o'zbek olimlari biron-bir fanga asoslanib, tadqiqot yo'nalishini tanlashdan oldin birinchi o'rinda mahsulotning barcha imkoniyatlari, uning amaliyotga tatbiq etilishi, ishlab chiqarishda tannarxni pasaytirgan holda raqobatdoshlik darajasi, energetik quvvati qay holatda bo'lishi mumkinligi ustida izlanish olib bormoqdalar.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik raqobat muhiti rivojlanishiga yordam beradi va shu bilan iqtisodiyotning monopollashuv darajasini kamaytiradi hamda mulkdorlarni shakllantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sohadagi yutuqlarga qaramay, unda kamchiliklar ham uchraydi, masalan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda fan-texnika yutuqlari, ularda innovatsion loyihalarni yaratish va amaliyotga tatbiq etish muammolaridir. Milliy innovatsion tizimni shakllantirish birinchi navbatda, innovatsiyalarni boshqarish uchun menejer kadrlar tayyorlash, mahalliy yuqori texnologiyali ishlab chiqarish menejmenti me'yorlarini xalqaro me'yorlarga yetkazishni, axborot xizmatlari rivojlangan tarmog'i, jumladan, innovatsion loyihalar bo'yicha ma'lumotlar to'plami va axborot tizimlari, risk kapitali bozorlaridagi konyuktura haqida axborot, ba'zi loyihalarga mablag' kiritishning

maqsadga muvofiqligi haqida tavsiyalarni talab qiladi.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ilmiy - texnik darajasini oshirish, qolaversa, ularning innovatsion faoliyatini rivojlantirish davlatning strategik ahamiyatiga ega vazifalaridan biridir. Davlat kichik biznes subyektlari tomonidan taqdim etilayotgan hamda hukumatimiz ahamiyatiga molik innovatsion loyihalarni soliqlardan ozod etishi va ularni kreditlar orqali rivojlantirishga e'tibor qaratishi lozim.

Bu sohada innovatsion va investitsion siyosatning olib borilishi tanlov asosida o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Innovatsion sohada kichik tadbirkorlikning manfaatlarini ta'minlash orqali davlat ahamiyatiga molik muammolarni quyidagi asosiy vazifalar bilan hal etish mumkin:

- innovatsion sohada kichik tadbirkorlik rivojlanishiga ko'maklashish va yana ishlab chiqarishning ilmiy - texnik darajasini oshirish.

- innovatsion firmaning yirik va kichik korxonalar bilan hamkorligini va kooperatsiya aloqalarini qo'llash.

- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida innovatsion biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish.

- ijtimoiy muhitni shakllantirish.

- ekologik ahvolni yaxshilashda ularni qo'llab - quvvatlash.

Innovatsion monopoliyalar manfaati uchun resurslarni qayta taqsimlashni tashkil etish va bu orqali iqtisodiyotdagi nomutanosiblikni va muvozanatsizlikning oldini olish va boshqalar.

Hozirgi kunda mintaqalarda kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini ta'minlash va kuchaytirish mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Mazkur vazifaning samarali hal etilishi mahalliy korxonalarining iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash orqali mintaqa iqtisodiyotining barqaror o'sib borishi va raqobatdoshligini oshirishga xizmat qiladi.

3.2.O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash yordamida takomillashtirish yo‘llari

Mamlakatimizda iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o‘rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ko‘lami har bir mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy ahvoli holatidan kelib chiqadi. Shuning uchun bu borada aniq yo‘l va ko‘rsatmalar mavjud bo‘lmasada, mavjud tajribalarga tayanib quyidagi yo‘nalishlarni tavsiya etishimiz mumkin:

-davlat byudjeti mablag‘lari evaziga qo‘llab-quvvatlash;


-har xil fondlar va uyushmalar mablag‘lari hisobiga;

-moliya va kredit tizimida turli imtiyozlar berish orqali;

-axborotlar bilan doimiy ravishda ta‘minlab borish va hokazo. Bu borada mamlakatimizda ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga bevosita ko‘mak beruvchi, uni qo‘llab - quvvatlovchi maxsus qo‘mitalar va kengashlar tashkil etildi.

Mamlakat miqyosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bu idoralarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Mahalliy organlar, hokimiyatlar hududiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish bo‘yicha o‘z dasturlarini ishlab chiqadilar hamda amalga oshiradilar.

Mustaqillikning birinchi kunidanoq respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asosini tashkil etishga kirishildi. Natijada respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni muayyan shakllari yaratildi.




8-rasm. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shakllari.³³

O‘zbekiston Respublikasining tadbirkorlik to‘g‘risidagi qonunida tadbirkorlikning iqtisodiy-huquqiy mustaqilligi hamda ushbu mustaqillikni ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan kafolatlar tadbirkorlarning huquq va mas‘uliyati aniq belgilangan. Ushbu qonunda tadbirkorlar o‘rtasidagi munosabatlar, ularning boshqa korxonalar va tashkilotlar, davlat boshqaruv idoralari bilan munosabatlarini tartibga solishga taalluqli qoidalar ham yoritib berilgan. Ushbu qonun vositasida fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati tartibga solingan tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy kafolatlari belgilab berilgan. Qonun mulkchilik va xo‘jalik yuritish shakllarini erkin tanlashga, bu shakllarning teng huquqlilik asosida amal qilishiga, o‘zaro hamkorlik va erkin raqobatbardoshlikni ta‘minlaydigan sharoitlarni yaratilishiga ko‘maklashadi. Bundan tashqari, respublikada mustaqillik yillarida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining "Bank va banklar faoliyati to‘g‘risida"gi, "O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati to‘g‘risida"gi, "Monopolistik faoliyatni cheklash to‘g‘risida"gi, "Chet el investitsiyalari va chet el investorlari faoliyatlari kafolatlash to‘g‘risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida"gi, "Xususiy korxonalar to‘g‘risida"gi Qonunlari tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy bazasini tashkil etadi.

³³ Iqtisodiy adabiyotlardan foydalangan holda talaba tomonidan tuzilgan.

Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning maqsadi 1999-yilda "O‘zbekiston Respublikasida kichik va xususiy korxonalarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash Davlat dasturi" qabul qilingan. Bu dasturning muhim bir tomoni shundaki, unda qishloq joylarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan.



9-rasm. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat dasturi.³⁴

Ushbu davlat dasturi iqtisodiyotni erkinlashtirish tadbirlari to‘plamini ko‘zda tutadi, mamlakatda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy maqsadlarini belgilab beradi. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta‘minlash maqsadida "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida", "Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida", "Mikrofimlar va kichik korxonalarini rivojlantirishni

³⁴ www.gov.uz. ma‘lumotlari asosida tayyorlangan.

ragʻbatlantirish borasidagi qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida" Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, "Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish toʻgʻrisida"gi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari qabul qilingan.

Kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muhitini taʼminlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, yangi ish oʻrinlarini yaratish va ikkilamchi bandlikni taʼminlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy inqilobni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish, soliq tushumlari hajmining oʻsishini taʼminlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi.

Mazkur jadval maʼlumotlardan koʻrinadiki, kichik biznes korxonalari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 23967,2 mlrd. soʻmni (jami sanoat ishlab chiqarishining 31,9 foizi) yoki 2013-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 117,6 foizni tashkil qildi. Shuningdek, investitsiyalar salohiyati 11716,6 mlrd. soʻmlik (umumiy investitsiyalar hajmining 34,8 foizi) oʻzlashtirildi va 2013- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 113,4 foizni tashkil qildi.

9-jadval

Kichik biznes korxonalarining iqtisodiyot va uning asosiy tarmoqlaridagi ulushi.³⁵ (%)


Tarmoqlar	Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.soʻm	Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi,foiz hisobida
Sanoat	23967,2	34,5
Qurilish	13896,9	69,0
Investitsiyalar	11716,6	24,1

Qurilish ishlari – 13896,9 mlrd. soʻmlik (qurilish ishlari umumiy hajmining 70,3 foizi) bajarildi va 2013 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 115,5 foizni tashkil qildi.

³⁵ www.gov.uz. maʼlumotlari asosida tayyorlangan.

Avtomobil transporti yuk aylanmasining 8,6 foizga (respublika jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 83,4 foizi), yo‘lovchi aylanmasining esa 7,8 foizga (umumiy yo‘lovchi aylanmasining 88,7 foizi) ko‘payishi ta‘minlandi.

O‘z navbatida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi: sanoatda-34,5 foizni, qurilish tizimida-69 foizni, investitsiyalar hajmida 24,1 foizni tashkil etgan. Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznes va tadbirkorlik sub‘ektlarini moliyalashtirishda, avvalo mazkur soha uchun belgilanayotgan soliq imtiyozlari etarli darajadagi rag‘batlantiruvchi rol o‘ynamoqda. Jumladan, bu borada 2013-yilda bevosita soliqlar 5% ni, bilvosita soliqlar 9,7% ni, mol-mulk solig‘i 3,5% ni tashkil etgan.




7-diagramma. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha kreditlash holati.³⁶ (%)

Kichik va xususiy biznesning tarmoq tarkibida keyingi yillarda bir qator o‘zgarishlar yuz berdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-

³⁶ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari asosida tayyorlangan.

tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-4609-sonli Farmoniga asosan kichik biznes faoliyati band bo‘lgan xodimlar sonini, jumladan: qurilish materiallari sanoatida, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoatida band xodimlar sonini 200 taga oshirish bo‘yicha dolzarb chora-tadbirlari belgilab berildi.³⁷

Banklarning investitsion kreditlari ustuvor ravishda “2011-2015-yillarda sanoatni rivojlantirish”, “2013-yilgi Investitsiya dasturi” hamda tarmoqlarni modernizatsiya qilish, mahalliyashtirish va hududlarni rivojlantirish davlat dasturlariga kiritilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan minitexnologiyalarni sotib olishni moliyalashtirishga yo‘naltirilmoqda.



8-diagramma. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar dinamikasi (mlrd.so‘m).³⁸

Kichik biznes subyektlariga 2000-yilda tijorat banklari tomonidan barcha manbalar hisobidan berilgan kreditlarning umumiy miqdori 96,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2014-yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 9 trln. so‘mdan ortiq, jumladan, 2 trln.so‘mga yaqin mikrokreditlar ajratildi.

³⁷ www.iqtisodiyot.uz

³⁸ O‘zR Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Bu o'tgan yilga qaraganda 39 foiz ko'pdir. So'nggi besh yilda kichik biznesni kreditlash hajmi qariyb 5 barobar ko'paydi. Kichik biznes subyektlari faoliyatini kreditlash tizimni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari va istiqbollari quyidagilardan iboratdir.

-iqtisodiyotni o'stirishning barqaror yuqori sur'atlarini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan strategiyani davom ettirish, buning uchun mavjud rezerv va imkoniyatlarni safarbar etish;

-sanoatda yuqori texnologiyali va zamonaviy eng muhim obyektlar hamda quvvatlarni ishga tushirish, investitsiya jarayonini oshirish va takomillashtirish;

-mamlakatda ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan yangilash va modernizatsiyalashning, jahon bozorlariga chiqishning asosiy omili hisoblangan to'laqonli raqobat muhitini shakllantirish;

-ishbilarmonlik muhitini ("biznes bilan shug'ullan" tamoyili bo'yicha) shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yanada rag'batlantirish;

-ijtimoiy sohani rivojlantirish, ish o'rinlari tashkil etish va aholining ish bilan bandligini ta'minlash, uy-joylar qurish va aholi punktlarini obodonlashtirish, ta'lim jarayonini va sog'liqni saqlash sohasini isloh qilishni davom ettirish va takomillashtirish eng muhim ustuvor yo'nalishlari etib belgilab olindi.

2016-yilda o'zining kichik xususiy ishini, o'z biznesini tashkil etishga intilayotgan yoshlarga imtiyozli kreditlar ajratish, yosh oilalarga uy-joy sotib olish va qurish uchun ipoteka kreditlari, uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan tovarlar xarid qilish uchun iste'mol kreditlari berish ko'lamini kengaytirish borasidagi ishlar bank tizimi faoliyatining diqqat markazida bo'ladi.

Respublika hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida 2016-yilda tijorat banklari tomonidan 14,0 trln. so'm yoki 2015-yilga qaraganda 1,2 barobar ko'p miqdorda kredit ajratilishi prognoz qilinmoqda.

Hududlarda kredit olish jarayonida investitsion loyihalar va biznes-rejalar puxtaligini ta'minlash maqsadida maslahat xizmatlari ko'lamini kengaytirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, yangi ish joylari tashkil etilishiga, aholining ish bilan bandlik darajasini oshirishga, yalpi ichki mahsulotni ko'paytirishga, import qilinayotgan mahsulotlar salmog'ini kamayishiga, eksportbop tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan to'ldirishga hamda respublikamizda erkin raqobat muhitining rivojlanib borishiga xizmat qiladi.


3.3.Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda jahon tajribasi o'rganish va ulardan amaliyotda foydalanish imkoniyatlari

Mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu toifadagi subyektlar yildan-yilga o'z mavqeini mustahkamlab borishi natijasida, mahalliy xom ashyo negizida eksportbop yoki import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, iste'mol bozorini sifatli tovarlar bilan to'ldirish, aholini ish bilan band qilish, jamiyatga esa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarii to'lash vazifalari samarali amalga oshirilmoqda. Bu boradagi muhim vazifa, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "...kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishiii har tomonlama ko'llab-quvvatlash, shu asosda aholining bandligini va farovonligini oshirish muammolarini hal etishdan iborat".³⁹

Davlat tomonidan olib borilayotgan tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatini takomillashtirish uchun kichik biznesning tadbirkorlik faolligini oshirish jarayoni-

³⁹ I.A.Karimov. Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlarni va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish.// Xalq so'zi, 2013 yil.19- yanvar.

dagi muammolarni aniqlash, bu borada to‘plangan xorijiy tajribani o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan biz Osiyo mamlakatlarida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish amaliyotini tahlil qilib chiqdik.



10-rasm. Kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.⁴⁰

Osiyo mamlakatlarida kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda katta tajriba to‘plangan. Xususan, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Yaponiyada davlat bilan birgalikda korporativ va jamoa tashkilotlari ham kichik va o‘rta biznesni qo‘llab - quvvatlash siyosatida o‘z ixtiyorlari bilan faol ishtirok etishadi.

Yaponiyaning kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha huquqiy-me’yoriy bazasi, uning manfaatlari hamda huquqlarini himoya qilish bo‘yicha antimonopol siyosati, shuningdek, faoliyati kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan o‘z-o‘zini boshqarish organlari to‘plagan tajriba O‘zbekiston uchun

⁴⁰ D.Azlarova. O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish. J/ Iqtisodiyot va ta’lim. № 6. 2013 yil - 119b.

qimmatli hisoblanadi.

Mamlakatimizda qabul qilingan va amalga oshirilayotgan inqirozga qarshi choralar dasturida ham kichik biznes bilan bog'liq qator muhim tadbirlar belgilangan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiy ko'rsatkichlari boshqa mamlakatlar darajasiga yaqinlashib borayotganligi respublikamizda ushbu sohaga jiddiy e'tibor va u faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganligidan dalolat beradi.⁴¹

Tadqiqotlar mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritilayotganiga qaramasdan, yaratilgan imkoniyatlardan hali to'liq foydalanilmayotgan holatlar ham mavjudligidan dalolat beradi. "O'zbekiston aholisining har 1000 nafariga 16,2 birlik kichik biznes korxonasi to'g'ri kelsa, Yevropa Ittifoqi davlatlarida aholining har 1000 nafariga 37-46 birlik kichik korxonalar to'g'ri keladi. Demak, respublikamizda korxonalar sonining o'sishiga qaramay, hali ularning taraqqiy etgan mamlakatlar darajasiga yetmaganligini ko'rish mumkin".⁴²

Kichik biznesning texnik jihozlanish darajasi, tarkibiy tuzilmasi va xususiy tadbirkorlikning rivojlangan sanoat sohasidagi o'rnini past-12,9% darajasida saqlanib turibdi. Yaponiya sanoatining o'zagini yirik korxonalar va ularning pudratchilari, ularga xizmat ko'rsatuvchi kichik va o'rta korxonalar tashkil etadi. Ya'ni, ishlab chiqarish hajmi va miqdorining o'sishi bir tomondan, yirik korxonalar operatsiyalari hajmini kengaytirib, yangi-yangi kichik korxonalar vujudga kelishiga olib kelmoqda. Kichik va xususiy biznesni rivojlantirish va uning yirik biznes bilan hamkorligini kuchaytirish imkoniyati, salohiyati respublikamiz miqyosida mavjud bo'lib, lekin undan to'liq foydalanilmayapti. Respublikamizdagi o'z ishlab chiqarish quvvatidan to'liq foydalana olmayotgan yirik korxonalar ishlab chiqarish vositalari hamda maydonlarini kichik

⁴¹O'zbekiston Respublika Prezidentining 2011-yil 24-avgustdagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. 2011 yil

⁴²M.S.Qosimov. B.Yu.Xodiev, A.N.Samadov. U.S.Muxitdinova. Kichik biznesni boshqarish.-T.: O'qituvchi. 2010 yil. -39 b.

biznesga ijaraga bergan holda hamkorlikda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish jarayoni rivojlantirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yaponiyada "venchur biznes" ni rivojlantirishga ilmiy izlanish bilan shug'ullanadigan oliy o'quv yurtlari olimlari ham keng jalb qilingan. Yaponiya hukumati ilm va amaliyotni muvofiqlashtirish jarayonini tezlashtirish maqsadida professor va ilmiy xodimlarga "venchur biznes" firmalari tuzishga yoki shunday firmalarda ishlashga ruxsat berib qo'ygan. Masalan, Tokio universiteti bir yil davomida hamkorlik shaklida o'rtacha 100 dan ortiq loyiha tayyorlaydi, "Keyou" universiteti esa, 20 ta. Yaponiyada kichik va o'rta biznes tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholining 80 foizi, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa 50-60 foizi ishlaydi .

10-jadval

Osiyo mamlakatlaridagi kichik va o'rta biznes korxonalarida mehnat qilayotgan ishchilar ulushi.⁴³

Davlatlar	KO'B korxonalarida band ishchilar ulushi, %
Yaponiya	79,9
Koreya Respublikasi	80,5
Tayvan	77,2
AQSh	50,7
Buyuk Britaniya	58,5

Yaponiyada asosiy e'tibor yirik biznes bilan o'rta biznes o'rtasida kooperativ aloqalar tizimini shakllantirishga qaratildi.⁴⁴ Iqtisodiyotning mazkur bo'gini mamlakatda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko'prog'ini bermoqda. Aynan shunday iqtisodiy siyosat natijasida Yaponiyada islohotlarning boshlang'ich davrida aholi jon boshiga 500 AQSh dollari miqdorida daromad to'g'ri kelgan bo'lsa, hozirga kelib bu ko'rsatkich 38 ming dollarga yetmoqda. Bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir.

⁴³ Ли.Хен-Дже. Все о бизнесе в Республике Корея. Инновационная политика малого и среднего бизнеса.- СПб, Питер,2012. -С.67.

⁴⁴ Ch.A.Sultonov. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi.-T.: Moliya 2011y .- 22 b.

Tahlillar ko'rsatishicha, qishloq xo'jaligida tashkil etilayotgan korxonalar salmog'i 68,6%, sanoatda tashkil etilayotgan kichik korxonalar salmog'i 6,0 % atrofida saqlanib qolmoqda. Tarmoqlar tarkibining ushbu holati kichik biznesning YaIM dagi ulushida sanoat mahsulotlarining pastligi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, davlat mulki tarkibida yirik sanoat korxonalari salmog'ining yuqoriligi bilan belgilanadi.⁴⁵ Shu bois, kichik biznesni rivojlantirishning maqsadli hududiy dasturini mintaqa xususiyatiga mos ravishda ishlab chiqish va unda yirik korxonalar bilan kichik biznes subyektlarining o'zaro integratsiyasiga erishishda yirik sanoat korxonalari tarkibida kichik biznes subyektlarini tashkil etishni rejalashtirish maqsadga muvofiqdir.⁴⁶

Respublikamizdagi korxonalarining YaIMdagi ulushini oshirish uchun xorijiy mamlakatlarning tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga va sotish borasidagi ilg'or tajribasidan milliy xususiyatlarimizdan kelib chiqqan holda foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Fikrimizcha, kichik biznes subyektlarining tadbirkorlik faolligini oshirish yo'nalishlarini ikki guruhga bo'lish mumkin:

- tadbirkorlik imkoniyatlarini ishga soladigan yo'nalishlar;
- biznes faoliyati natijalarini yaxshilashga qaratiladigan yo'nalishlar.

Birinchi guruh yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

-kichik biznesning huquqiy-me'yoriy va tashkiliy asoslarini iqtisodiyotda turli omillar ta'sirida ro'y berayotgan o'zgarishlarga mos ravishda uzluksiz takomillashtirib borish, davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samaradorligini oshirish;

-bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasidagi yangi mexanizmlarni amaliyogda qo'llash. kichik biznesni moliyaviy jihatdan ta'minlashdagi mexanizmlar samaradorligini oshiriga va moliyalashtirishning yangi manbaalarini jalb etish

⁴⁵ D.Azlarova. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish. J/ Iqtisodiyot va ta'lim. № 6. 2013 yil.- 121b.

⁴⁶ Ли.Хен-Дже. Все о бизнесе в Республике Корея. Инновационная политика малого и среднего бизнеса.- СПб, Питер,2012. -С.67.

negizida qulay investitsiya muhitini yaratish;

-kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish va bu soha uchun malakali kadrlar tayyorlash, unda kooperatsiyani chuqurlashtirish.

Ikkinchi guruh yo‘nalishlariga quyidagilarni kiritishni maqsadga muvofiq:

-kichik biznesda menejment sifatini yaxshilash, korporativ boshqaruv tizimini qo‘llash, kichik biznes subyektlarining innovatsiyalarini yaratish va o‘zlashtirishga moyilligini oshirishga, marketing usulida xo‘jalik yuritishni yo‘lga qo‘yish, insonning tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish, foyda hisobidan biznes qiymatini ko‘paytirish evaziga yangi ishchi o‘rinlarini yaratish;

-mahsulot sifatini yaxshilash, kichik biznesda ishlab chiqarishni tashkil etishning moddiy ta‘minotini takomillashtirish, tavakkalning oldini olish va sug‘urtalashni yo‘lga qo‘yish orqali bu toifadagi subyektlarning ijtimoiy naflilik darajasini oshirish, ishchi xodimlarni rag‘batlantirish va ularning ijtimoiy himoyasini ta‘minlash;

-korxonalar joylashgan hudud infratuzilmasini rivojlantirishga hissa qo‘shish;

-tadbirkorlikning elektron biznes ko‘nikmalarini rivojlantirish va boshqalar.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi kichik tadbirkorlikning yuqori ijtimoiy - iqtisodiy ahamiyatini hamda bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida kichik tadbirkorlik subyektlarini boshqa tadbirkorlik subyektlaridan ajratish mezonlarini ishlab chiqishning muhimligini ko‘rsatadi. Xorijda kichik tadbirkorlik subyektlarini tasniflash bo‘yicha turli mezonlar mavjud.⁴⁷ (9-jadval)

Yevropa Ittifoqida kichik va o‘rta korxonalarga davlat yordami ko‘rsatish chegaralarini o‘rnatadigan 2001-yil 12-yanvardagi 70/2001-sonli to‘g‘ridan - to‘g‘ri ta‘sir reglamenti barcha a‘zo-mamlakatlar uchun majburiy, deb qabul qilingan.

⁴⁷ Рекомендации Европейской комиссии от 6 мая 2003 года для определения микропредприятий, малых и средних предприятий (опубликовано под номером К(2003)1422). Основные характеристики систем государственно-общественной поддержки и развития малого и среднего предпринимательства зарубежных стран. // Пятая Всероссийская конференция представителей малых предприятий «Инфраструктура развития и поддержки малого и среднего предпринимательства». М., Московский центр развития предпринимательства, 2012.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes subyektlarining tasniflanishi.⁴⁸

Mamlakatlar	Kichik korxonalar uchun mezonlar
Buyuk Britaniya	Ishlovchilar soni bo'yicha 0-49 kishigacha; yillik oborot hajmi bo'yicha - 5,3 mln dollar.
AQSh	Ishlovchilar soni bo'yicha - 100, 500, 750, 1000, 1500 kishi (faoliyat turidan kelib chiqib); yillik daromad hajmi bo'yicha - 0,75-20 mln dollargacha (bundan tashqari, faoliyat turidan kelib chiqib).
Kanada	Ishlovchilar soni bo'yicha - 49 kishigacha (xizmat ko'rsatishda) va 99 kishigacha (ishlab chiqarishda); yillik daromad hajmi bo'yicha - 5 mln dollargacha (xizmat ko'rsatish) va 10 mln dollargacha (ishlab chiqarish).
Germaniya, Frantsiya	Ishlovchilar soni bo'yicha - 0 - 49 kishi; qo'yilgan kapital hajmi bo'yicha - 5 mln evrodan ortiq bo'lmagan; yillik oborot hajmi bo'yicha - 7 mln evrodan oshmaydi.
Italiya	Kichik korxonalar: ishlovchilar soni bo'yicha - 50 kishigacha; qo'yilgan kapital hajmi bo'yicha - 10 mln yevrodan, yillik oborot hajmi bo'yicha - 10 mln yevrodan oshmaydi; mikrokorxonalar alohida ajralib turadi: ishlovchilar soni bo'yicha - 10 kishigacha; qo'yilgan kapital va yillik oboroti hajmi bo'yicha - 2 mln evrodan oshmaydi.
Yaponiya	Ishlovchilar soni bo'yicha - 100 kishigacha (xizmat ko'rsatish), 50 kishigacha (chakana savdoda) va 300 kishigacha (ishlab chiqarish); nizom kapitali hajmiga ko'ra - 474 ming dollargacha (xizmat ko'rsatish, chakana savdo), 948 ming dollargacha (ulgurji savdo) va 2844 ming dollargacha (ishlab chiqarish).

MDH davlatlaridan har biri turli vaqtlarda kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash to'g'risida o'zining qonunchilik hujjatlarini qabul qilgan va ular o'z belgilari bo'yicha turlichadir. Ko'pchilik mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat kichik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy va boshqa sharoitlarni shakllantirish siyosiy erkinligiga ega bo'lishi zarur. Davlat, mintaqa va mahalliy darajalarda ixtisoslashgan kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishning bir butun infratuzilmasini yaratmasdan va bu vazifaga tegishli moliyaviy, tashkiliy va boshqa resurslarni ajratmasdan turib, bu vazifani hal qilib bo'lmaydi.

⁴⁸ Основные характеристики систем государственной-общественной поддержки и развития малого и среднего предпринимательства зарубежных стран. // Пятая Всероссийская конференция представителей малых предприятий «Инфраструктура развития и поддержки малого и среднего предпринимательства». М., Московский центр развития предпринимательства, 2012.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo'lgan mulkdorlar sinfini, ya'ni o'rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Tadbirkorlikni rivojlantirish, ishbilarmonlikni huquqiy himoya qilish masalasi mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, ushbu soha jadal sur'atlar bilan ravnaq topib, aholi bandligi va turmush farovonligini ta'minlashda yetakchi kuchga aylandi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinliklar berish bilan tavsiflanadi. Kichik tadbirkorlikning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

- bozordagi talabga tez moslasha borib, sifatli mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati;

- nisbatan qisqa muddatlarda aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni qondira olishi;

- dastlabki sarmoya hajmining nisbatan kichikroq hajmda ekanligi;

- tez orada yangi ishchi o'rinlarni barpo etish hamda bandlik muammosini hal etishga ko'maklashish imkoniyati;

- biznes egasining vazifalarini amalga oshirishda bevosita ishtiroki.

Hududlarda kredit olish jarayonida investitsion loyihalar va biznes-rejalar puxtaligini ta'minlash maqsadida maslahat xizmatlari ko'lamini kengaytirishga alohida e'tibor qaratiladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, yangi ish joylari tashkil etilishiga, aholining ish bilan bandlik darajasini oshirishga, yalpi ichki mahsulotni ko'paytirishga, import qilinayotgan mahsulotlar salmog'ini kamayishiga, eksportbop tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan to'ldirishga hamda respublikamizda erkin raqobat muhitining rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Biz bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida quyidagi xulosalarga keldik. Ya'ni respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab quvvatlash natijasida ularning eksportbop, raqobatlasha oladigan sifatli tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni ta'minlaydigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishini ta'minlaydigan barcha sharoitlar mavjud.

Hozirgi vaziyatning o'ziga xosligi shundan iboratki, mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholining o'sish sur'atlari ma'lum darajada bir xil emasligi, mehnat resurslari sonining o'sishi bilan jamoat xo'jaligidagi ish bilan bandlik dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlikning qattiqligidir. Mehnat resurslari tarkibiga aholining tabiiy harakati o'zgarishining ko'payishi ta'sir ko'rsatmoqda.

Iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish sohasining yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishi biz uchun eng muhim ustuvor yo'nalish bo'lgan - aholi bandligini ta'minlash, avvalambor, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish uchun zarur sharoitlar yaratdi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida davlat ish bilan bandlik siyosati viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining tarkibiy qismi sifatida mehnat potensialidan samarali foydalanish va uning rivojlanishi bo'yicha ish bilan bandlik muammolarini yechishga yo'naltirilishi zarur. Bozor munosabatlari sharoitida aholini ish bilan bandligi va ishsizligi bir-biriga tez almashinishi mumkin. Viloyatda aholini ish bilan ta'minlash va ishsizlikni bartaraf etishda davlat ish bilan bandlik xizmati faoliyatining ahamiyati kattadir. Chunki viloyatda ishchi kuchiga bo'lgan talab va uning taklifi aynan mehnat bozorida o'zaro to'qnashadi.

Shu bois, bu infratuzilmani samarali rivojlantirish viloyatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mehnat bozorining mehnat munosabatlarini tartibga solishning samarali mexanizmini takomillashmaganligi bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatlarining samaradorligini oshirishga va buning natijasi o'laroq aholining oqilona ish bilan bandligini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi bobimizning asosiy vazifasi tahliliy ishlarni amalga oshirishdan iborat. Unga ko'ra tahlillar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, ya'ni tadbirkorlik subyektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi bo'yicha mutlaqo yangi mexanizm joriy etildi. Unga ko'ra, ushbu tarmoqlar ishini yuritadigan tashkilotlarning hududiy korxonalariga texnik shartlarni olishdan tortib muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni amalga oshirib, ularni tadbirkorlarga tayyor holda topshirish vakolatlari berildi.

Bozor munosabatlari sharoitida aholining ish bilan bandligini ta'minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, ishsizlik muammosining mavjudligi bozor iqtisodiyotining ajralmas xususiyatidir. Shunday ekan, ishsizlik muammosini o'rganishdan asosiy maqsad aholining ish bilan bandligini oshirish orqali mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Tahlil yakunidan so'ng quyidagilarni amalga oshirish lozimdir, ishchi xodimlarning o'rtacha yillik ish haqi o'sish dinamikasi ega. Buning asosiy sababi shuki, korxonadagi faoliyatning hamda samarali marketing faoliyatini amalga oshirish orqali daromad olish hamda shu munosabat bilan ishchilarga nisbatan moddiy rag'batlantirishlarning amalga oshirilishidir. Korxonaning xarajatlari yil sayin kamayib, daromadlari esa oshib borayotganidan dalolat beradi. Buning asosiy sababi korxonadan sifatli xizmat ko'rsatilgani hamda samarali marketing faoliyatini olib borilganidir.

Korxonaning maqsadi va faoliyat turlari aniqlandi. Korxonada o'zining mahsulotlariga, ishlariga va xizmatlariga bo'lgan jamiyat ehtiyojlarini ta'minlash natijasida foyda olish maqsadida korxonada egasining tavakkalchiligi va mulkiy javobgarligi asosida tuzilgan bo'lib samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo'lgan mulkdorlar sinfini, ya'ni o'rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, ishbilarmonlikni huquqiy himoya qilish masalasi mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning eng asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlib, ushbu soha jadal surʼatlar bilan ravnaq topib, aholi bandligi va turmush farovonligini taʼminlashda yetakchi kuchga aylandi.

Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinliklar berish bilan tavsiflanadi. Kichik tadbirkorlikning quyidagi oʻziga xos xususiyatlari mavjud:

- bozordagi talabga tez moslasha borib, sifatli mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati;

- nisbatan qisqa muddatlarda aholi ehtiyoji uchun zarur boʻlgan tovar va xizmatlarga boʻlgan talabni qondira olishi;

- dastlabki sarmoya hajmining nisbatan kichikroq hajmda ekanligi;

- tez orada yangi ishchi oʻrinlarni barpo etish hamda bandlik muammosini hal etishga koʻmaklashish imkoniyati;

- biznes egasining vazifalarini amalga oshirishda bevosita ishtiroki.

Hududlarda kredit olish jarayonida investitsion loyihalar va biznes-rejalar puxtaligini taʼminlash maqsadida maslahat xizmatlari koʻlamini kengaytirishga alohida eʼtibor qaratiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qoʻllab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, yangi ish joylari tashkil etilishiga, aholining ish bilan bandlik darajasini oshirishga, yalpi ichki mahsulotni koʻpaytirishga, import qilinayotgan mahsulotlar salmogʻini kamayishiga, eksportbop tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan toʻldirishga hamda respublikamizda erkin raqobat muhitining rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari.

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T.: O‘zbekiston, 2014.

2.O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. - “Xalq so‘zi”, 2012 yil 3 may .

3.O‘zbekiston Respublikasi “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risidagi Qonuni. 2012-yil 26 -aprel, O‘RQ-327-son.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-4609-sonli Farmoni.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-iyuldagi F-4453-sonli “Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2012-yil, 7-son, 189-modda.

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-avgustdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4354-sonli Farmoni.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash hajmlarini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2011-yil 11- martdagi PQ-1501-sonli Qarori.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 15-iyuldagi “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 916-sonli Qarori.

9.O‘zbekiston Respublikasi Mehnat qonunchiligi bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami.“Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. T., 2008-yil.

10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi. 17.01.2016.

11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2015-yilda iqtisodiyotimiz tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalgaoshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xusuiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish ustuvor vazifamizdir. Xalq so‘zi. 18.01.2015.

12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yakunlari va 2014-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. 2014 yil 18-yanvar.

13.I.A.Karimov Bosh maqsadimiz–keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat‘iyat bilan davom ettirish: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi 2013-yil 21-yanvar.

10.I.A.Karimov Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, halqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.-T.: O‘zbekiston, 2011.

11.I.A.Karimov. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omilidir” nomli ma‘ruzasi. //Xalq so‘zi, 2010-yil 2- b.

II. Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar

1. Гербер Майкл Э. Малый бизнес: от иллюзии к успеху. Возвращение к мифу предпринимательства / ЗАО “Олимп-Бизнес”, 2010.
2. Аронов Н. Малый бизнес в России близок к краху. Мир Новостей, 2013.
3. Иваний П. Малый бизнес США в условиях кризиса, 2010.
4. Калинин А.В. Анализ развития и состояние малого и среднего бизнеса в мире . Экономика, предпринимательство и право. - 2011. - № 4
5. Кириченко. Э. В. Перспективы социально-экономического развития США после кризиса 2008-2009 гг., Москва. ИМЭМО РАН, 2012.
6. Лебедева И.П. Малый бизнес в Японии. Восток-Запад, Москва 2010.
7. Bhasin K. Groth A., 18 Amazing Facts About Small Businesses In America Business Insider, 2011.
8. Audra Bianca. Reasons Why Small Businesses are Important, 2012.
9. Sh.M.Gaziev. Mahalla va kichik oilaviy biznes. TDYuI, 2011.
10. S.Xamdamova., M.O‘sarov., B.Mutaliev. Oilaviy tadbirkorlikka qadam. Jizzax, “Sangzor”: 2012
11. Boltabaev M., Qosimova M. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” Iqtisod. 2011.
12. Vahobov A., Mamatov B. Kichik tadbirkorlik loyihalarini kreditlash amaliyoti va muammolari. /Bozor, pul va kredit/, 5-son, 2006.
13. Xodiev B.Y., Qosimova M.S. Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: 2010 .
14. Ismailov O.Sh. “O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanish istiqbollari” T «FAN» 2007.
15. G‘ulomo. S.S. “Tadbirkorlik va kichik biznes» T., “O‘zbekiston”, 2002 y.
16. Ernazarod U. Tadbirkorlik ravnaqi va huquqiy asos. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2013-yil 20-fevral, 35-son.
17. Arabov N.U. Mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanishi. Diss.T., 2011.

- 18.Yusupov M. Soliq siyosatini takomillashtirishning dolzarb muammolari // Bozor, pul va kredit.2008. 2-son.
- 19.Zokirova N., Abdurahmonov O. Inqiroz: oqibatlar, bartaraf etish, mehnat muammolari va yangi marralarga chiqish. – T.: Fan va texnologiya, 2009.
- 20.Shadiyeva D. The theory of innovative development and its influence on R&D financing// Iqtisodiyot nazariyasi muammolari: talqini va echimlari: oily o‘quv yutrlariaro ilmiy-amali konferensiya materiaalari – Toshkent, 2015.
- 21.Azlarova D. O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish. J. Iqtisodiyot va ta’lim. № 6. 2013-yil.
- 22.Ли.Хен-Дже. Все о бизнесе в Республике Корея. Инновационная политика малого и среднего бизнеса.-СПб, Питер,2012.
- 23.Qosimov M.S., Xodiev B.Yu., Samadov A.N., Muxitdinova. U.S., Kichik biznesni boshqarish.-T.: O‘qituvchi. 2010 yil.
- 24.Sultonov Ch.A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi.-T.: Moliya 2011.-22bet.
- 25.Boltaboyeva L. Demografik muhitning ish bilan bandlik darajasiga tasiri. O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, -T.: 2009. 4-son.
- 26.Основные характеристики систем государственно-общественной поддержки и развития малого и среднего предпринимательства зарубежных стран. // Пятая Всероссийская конференция представителей малых предприятий «Инфраструктура развития и поддержки малого и среднего предпринимательства». М., Московский центр развития предпринимательства, 2012.
- 27.Zokirova N., Abdurahmonov O. Inqiroz: oqibatlar, bartaraf etish, mehnat muammolari va yangi marralarga chiqish. - T.: Fan va texnologiya, 2009.
- 28.Kichik biznes va tadbirkorlik: O‘zbekistan Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - T.: ADIB NASHRIYOTI, 2011. 280- bet.
- 29.Jalolov J.J. va boshqalar. Biznes marketingi. Darslik. T.: Iqtisodiyot, 2012.

30.O‘zR Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari

31.Основные показатели развития научно-технического потенциала и инноваций Республики Узбекистан за 2014 г.-Т.: Госкомстат РУз, 2015 год.

32.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari.

33.O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma’lumotlari.

34.“MUROD MATQURBANOV” Xususiy korxonasi ma’lumotlari

III.Internet saytlari

<http://www.gov.uz>- O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.

<http://www.prezident.uz>- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot hizmati.

<http://www.ziyonet.uz>- Axborot ta’lim tarmog‘i.

<http://www.rurdev.gov>- USDA 890

<http://www.iqtisodiyot.uz>

